Boshqarish usullari va tartibi: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati ham tartibli yo'lga qo'yiladi.

Monitoring va baholash: butun kurs davomida ham o'qitish natijalari reyting tizimi asosida nazorat va tahlil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma, og'zaki yoki test topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarning bilimlari baholanadi.

VI. Ma'ruzalar kursi

1-MAVZU: SUZISH FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Kirish. Suzish fanining ilmiy-nazariy asoslari” mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.

t/p	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: Talabalarga suzish bilan shug'ullanishning sog'liq uchun ijobiy ta'sir etishini tushuntirish Suzish fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida talabalarda tushunchalar hosil qilish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1 Talabalar suzish sporti jismoniy tarbiyaning bir turi ekanligini tushuntirib bera oladi. 1.2.2 Talaba suzishning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi rolini bayon eta oladi. 1.2.3. Talaba davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan e'tibor haqida gapirib bera oladi. 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Anatomiya, fiziologiya, arxeologiya, geografiya, gigiena, pedagogika, psixologiya, fizika va h.k. Muskul, bo'g'imlar, markaziy nerv sistemasi ta'siri, suvning harorati, suvning tozaligi, suvning gigienik holati, tashqi muxit, ajdodlarimizda suzish, odamning suvga moslashishi, yoshga qarab suzish, o'rta va katta yoshdagi bolalarning suvda suzishi va h.k. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma'ruza matni, o'quv-uslubiy majmua, o'quv qo'llanma, rasmlar, videoproektor	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi .	O'qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi.	O'qituvchi-Talaba, 40 minut
4	Mustaxkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma'lumotlarni talabalar tamonidan qanday o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Suzish turlari xakida ma'lumot bering. - Suzish kasi fanlar bilan yaqin alokada buladi - Suzishning inson organizmiga kanday ta'sir etadi 4.2. Eng faol talabalar (baxolash mezonida) baholanadi	O'qituvchi 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimni tahlil qilinadi. 5.2. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	O'qituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. Suzish jismoniy tarbiyaning bir turi.
2. Suzishning boshqa fanlar bilan aloqadorligi va suzish darsini tashkil etish.
3. Suzish fanining sog'liq uchun ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Anatomiya, fiziologiya, arxeologiya, geografiya, gigiena, pedagogika, psixologiya, fizika va h.k. Muskul, bo'g'imlar, markaziy nerv sistemasi ta'siri, suvning harorati, suvning tozaligi, suvning gigienik holati, tashqi muxit, ajdodlarimizda suzish, odamning suvga moslashishi, yoshga qarab suzish, o'rta va katta yoshdagi bolalarning suvda suzishi va h.k.

Mavzuga oid muammolar:

1. «Suzish va uni o'qitish metodikasi» fani aloxida fan hisoblanib, inson tanasining suv bilan o'zaro aloqadorlik qonunlarini o'rganuvchi bilimlar bilan qurollantiradi. Suzish fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini qanday izohlaysiz?
2. Bolalar va o'smirlarni suzishga o'rgatish engillashtirilgan suzish usullaridan boshlanadi. Suzishga o'rgatishning engillashtirilgan usullari mohiyatini izohlab bering.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga suzish bilan shug'ullanishning sog'liq uchun ijobiy ta'sir etishini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Talabalar suzish sporti jismoniy tarbiyaning bir turi ekanligini tushuntirib bera oladi.
- 1.2. Talaba suzishning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi rolini bayon eta oladi.
- 1.3. Talaba davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan e'tibor haqida gapirib bera oladi.

Birinchi asosiy savolning bayoni:

Jumhuriyatimizda jamiyatning barcha soxalarini yangilash, rivojlantirish, ildamlantirish jarayoniga faol kirishilmoqda. Bu yo'lda jismoniy tarbiya va sport ilmiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Bejiz emaski, xukumatinizning qarorlarida: jismoniy — tarbiya va sportning axoli keng qatlamlari o'rtasida yanada keng yoyish umumdavlat ishi, barcha xo'jalik va jamoat tashkilotlari mexnat jamoalarining burchi ekanligi ta'kidlangan, Kishilarda sog'lom tumush tarzining shakllantiruvchi yangidan—yangi aniq, vazifalar belgilab berilgan. Hozirda, ayniqsa, bolalarni go'daklikdan boshlab yalpisiga va mustaqil jismoniy mashg'ulotlarga keng jalb qilish, chiqarish, xususan, sog'lom, baquvvat, chidamli, chaqqon bo'lib o'sishlariga jiddiy e'tibor berish juda zarur.

Xurmatli Yurtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimov aytganlaridek: «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart».

Hozirgi kunda hamma ishonch, e'tibor yosh avlodga va sportga qaratilayapti. Ya'ni hozirgi kunda qaerga bormaylik, yangidan —yangi sport inshootlarini, zallarni, futbol maydonlarini, tennis qortlarini, suzish havzalarini va hokazolarni uchratamiz. Bunda biz Prezidentimizning yana bir jumllariga e'tibor qaratamiz, «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur». Shunga o'xshash e'tiborli jumllar ko'p. Biz bilamizki, davlat bayrog'i faqat ikki narsa uchun yuqoriga ko'tariladi, birinchisi, yurtimizga boshqa davlat prezidenti tashrif buyurganida, prezident xurmati uchun, ikkinchisi, sportchi nufuzli musobaqalarida qatnashib, yuqori o'ringa chiqqanida (1 o'rinni olganda). Bas, shunday ekan, bizlar ham jismoniy tarbiya va sportni yuksalishiga loqayd bo'lmasdan o'z hissamizni qo'shishimiz shart va lozim.

Suzish bilan shug'ullanish jismoniy mashqlarning eng foydali turlaridan hisoblanadi. Bejizga Prezidentimiz, «Xech narsa mamlakatni sportchalik uning shon — shuxratini dunyoga tanita olmaydi» demaganlar.

Nazorat savollari:

- 1.1. Jismoniy tarbiya tizimida suzishning roli qanday?
- 1.2. Suzish sportini rivojlantirish uchun xukumat tomonidan qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
- 1.3. Suzishni ommaviylashtirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Suzish fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida talabalarda tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Suzishning boshqa fanlar bilan aloqadorligini gapirib beradi.
- 1.2. Maktablarda suzish darslarini qanday tashkil etish va o'tkazish haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- 1.3. Maktablarda bolalar bilan suzish darslarini tashkil etishda foydalaniladigan asosiy vositalarni sanab bera oladi.

Ikkinchi asosiy savolning bayoni:

Suzish odatda anatomiya, biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, biomexanika, bioximiya, tibbiyot va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bilan biz quyida kurs dasturini bayon qilish davomida tanishib boramiz.

Suzish darsining vazifasi inson uchun hayotiy zarur bo'lgan suzishni o'rgatish, odam organizmini chiniqtirish va sog'ligini mustahamlashni o'z ichiga oladi.

Geografiya, botanika va zoologiya kurslaridan ma'lumki, bundan taxminan 2 — 3 mlr. yil ilgari er kurrasi yuzasi ko'p qismi suv bilan qoplangan. Hozir esa er kurrasining 70,8% ini suv tashkil etadi. Geologiya fanidan ma'lumki, tabiatda suv juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U tog' jinslarini parchalab, eritib, erigan tog' jinslarini va boshqa moddalarni oqizib kelib, tuproq qatlamini hosil qiladi. Dastlabki eng sodda organizmlar xuddi ana shu suv bag'rida paydo bo'lgan va yillar o'tishi bilan asta — sekin quruqlikda qolib, hayot vujudga kelgan. Botanika va zoologiya fani ham buni tasdiqlaydi.

Arxeologik qazilmalardagi sur'atlar, qadimgi kishilar dafn etilgan joylarda topilgan ashyolar shundan dalolat beradiki, ibtidoiy jamoa davrida erkaklar ovqat topish uchun suv havzalariga borib suv xayvonlarini ov qilgan, baliq, tutganlar, qabila — qabila bo'lib, suv ostidan kemalarga xujum qilganlar, buning uchun, albatta, suzishni bilganlar. Bunday olib qarasak, suzish sporti qariyb hamma fanlar bilan uzviy bog'liq ekan. Suzish sportiga, asosan, yuqorida ko'rsatib o'tgan fanlar uzviy bog'liqdir. Agarda ko'rsatilgan fanlarning birini qoldirib ketsak, suzish tarixini, rivojlanishini biz yaxshi ocha olmaymiz, chunki hamma fanlar bir — biri bilan uzviy bog'liq.

Suzish dars sifatida oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya o'quv dasturiga va jadvaliga kiritilgan. O'rta maxsus bilim yurtlarining jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturlarida majburiy fakultativ kurs sifatida o'rin olgan. Maktablarda sharoitga qarab, jismoniy tarbiya darslarida suzishga o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar olib borilmoqda. O'z maktabida sharoit bo'lmasa, yaqin atrofdagi basseynlar ijaraga olinmoqda yoki yoz oylarida ochiq suv havzalarida va bolalar dam olish oromgohlarida suzish mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Bu ishlarning hammasi davlat dasturiga muvofik, tasdiqlangan rejalar asosida olib boriladi. Chunki bizning jismoniy tarbiya sistemamizda suzish asosiy o'rinni egallaydi. Shu sabab boshqa jismoniy mashqlar qatori suzish ham jumxuriyat jismoniy tarbiya kompleksiga kiritilgan. Ikkinchi sabab suzishdagi tarbiyaviy ishlar butun mashg'ulot jarayonida olib borilib, bolalarning kollektivizm ruxida ongli, intizomli, tashabbuskor, sabot —matonatli, jasur, dadil va irodali bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatishi biz uchun juda muhim ahamiyatga molikdir.

Nazorat savollari:

- 2.1. Prezidentimiz I.Karimovning «Xech narsa mamlakatni sportchalik uning shon — shuxratini dunyoga tanita olmaydi» degan gaplari zamirida qanday ma'no yotibdi?
- 2.2. Suzish fani qaysi fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi?
- 2.3. Suzish darslari qanday tashkil etiladi va darslar necha qismdan iborat?


Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Suzishning inson organizmiga ta'sirini talabalarga tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 3.1. Suzish bilan shug'ullanish sog'liqqa ijobiy ta'sir etishini izohlab bera oladi.
- 3.2. Har bir oilada har bir bolani yoshlikdan suzishga o'rgatish kerakligini asoslab bera oladi.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:

Ma'lumki, suzish jismoniy tarbiyaning bir turidir, bas, shunday ekan, badanni jismonan chiniqtirishda, organizmni yanada sog'lomlashtirishda uning foydasi beqiyosdir. Chunki bolaning ham, katta kishining ham suvda suzganda bir necha emas, balki barcha mushaklari sistematik harakatga tushadi. Binobarin, odam gavdasi bir butun holda mutanosib rivojlanadi. Bejiz emaski, suzish bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan bolaning bo'g'inlari harakatchan, mustahkam, bir me'yorda harakatlanadigan, paylari, mushaklari yaxshi taraqqiy etgan bo'ladi. Ayniqsa, odam gavdasining suvda gorizontol holda harakatlanishi uning tik turib bajargan harakatlaridan ma'lum darajada farq qiladi. Binobarin, bolaning tik turib, yurib, yugurib—yugurib bajargan mashqlari uning pay, mushak va bo'g'inlariga bir tomondan ta'sir ko'rsatsa, suvda suzib bajargan mashqlari unga ikkinchi tomondan ta'sir ko'rsatadi. Gavdaning raso va asl bo'lib rivojlanishida, ayniqsa, umurtqa pog'onasining qiyshayib qolishi (skolioz)ning oldini olishda, suzishning ahamiyati juda kattadir. Shu sababdan ham suzish umurtqa pog'onasi kasalliklarini davolashda keng tavsiya qilinadi.



Suvda suzish organizmni chiniqtirish manbai hamdir. Buni, albatta, dastlab suv muolajalaridan keyin boshlash kerak. Chunki suv o'zining fizik xossalari, ya'ni issiqlikni o'ta o'tkazuvchanligi, katta issishushk sig'imiga ega ekanligi va teriga mexanik ta'sir ko'rsatishi bilan suvda o'rganmagan organizmni shamollatib quyish mumkin. Suv muolajalarini xususan, ularning

turlarini muntazam ravishda har kuni muayyan shart —sharoitda bolaning yoshiga, sog'ligiga qarab bajarish kerak. Suv muolajalariga suv vannalari, dush badanni xo'l sochiq bilan artish, boshdan suv quyish, xo'l choyshabga o'ralish kabilar kiradi. Badanni xo'l sochiq bilan artganda suv unga engil—elpi ta'sir ko'rsatadi, tetik, bardam qiladi. Qon aylanipshni moddalar almashinuvini oshiradi. Xo'l sochiq bilan artinish muolajalari kattaroq yoshdagi bolalargagina lozim va bu aksariyat davolash profilaktika maqsadlarida bajariladi. Chunki badanda tana haroratidan past harorat tegib turgach teridagi mayda kapillyar tomirlar torayadi, natijada issiqlik yo'qolishi kamayadi. Qon oqimiga bo'lgan qarshilik oshadi. Qon bosimi bir qadar ko'tariladi va oqibati yurakka zo'r keladi, uning urishini tezlashtiradi. Bular va yana nerv sistemasining ta'sirlanishi mushaklar tonusining oshishi, qon oqimining tezlashishi hammasi bir bo'lib, moddalar almashinuvini yaxshilaydi.




Рис. 35

Suzishga o'rgatishni odatda, 4 — 5 yoshdan boshlash mumkin. Hozir esa ayrim maxsus sport uyushmalarida xatto chaqaloqlikdan boshlab ham suzish o'rgatilmoqda. Tibbiyotchilarning fikricha, bu jarayon bola organizmiga yana ham foydali ta'sir qilar ekan. Agar bolaning paylari, mushaklari, qayishqoq, bug'imlari moslashuvchan, gavdalari egiluvchanligini hisobga olsak, kam deganda uni suzishga 7—8 yoshdan, sport mashqlarini 9—11 yoshdan boshlagani ma'qul, shunda bola sog'lom va baquvvat bo'lib o'sadi. Turmushda, hayotda jismoniy ishlarda pand emaydi.

Ko'pchilikka ma'lum, kishiga jismoniy tarbiya, jumladan, suzish ko'p dori-darmonlardan ko'ra foydaliroqdir. Chunki sovuq suvga o'rgangan, chiniqqan bola organizmi sovuq shamoldan, elvizakdan, ob — xavoning damba — dam sovi — isib turishidan, namlikdan qo'rqmaydi, ularga tezda moslashib oladi. Bunday sovuq omillar ham uni bezovta qila olmaydi.

Suzishning nafasga ta'sirini aytmayisizmi, odam suvda suzayotganda beixtiyor nafasga zo'r keladi. Agar suzayotgan kishi xavoni o'pkasiga tez olib, uzoq — uzoq, chiqarsa, uning nafas maromi to'g'ri bajariladi va o'pkaning hayotiy sig'imi borgan sari ortib boraveradi. Bu esa o'z navbatida, har xil o'pka kasalliklaridan, xalloslab qolishlardan saqlaydi. Yana eng keragi bola organizmi kislorod tanqisligiga ko'nikib boradi, o'rganadi.

Suzayotgan kishining gavdasi odatda, gorizontal holatda bo'ladi. Binobarin, uning ichki a'zolari ham xususan, yurak ham, shu holatni oladi. Bu esa uning ishini engillashtiradi. Shu jixatdan olib qaraganda odam tik turib mashqlar bajargandagiga qaraganda suvda suzganda yurakka nisbatan kamroq zo'r keladi. Kezi kelganda shuni ham aytib o'tish kerakki, suvga tushganda tik turmay harakatlanish lozim. Bola organizmiga suvdagi tinch holat emas, harakat holati zarur. U qancha ko'p harakat qilsa, shuncha ko'p foydali bo'ladi.

Suzishning sport turlaridan biri bo'lib, jahonga tarqalishiga dastlab uning organizmni sog'lomlashtiruvchi ta'siri turtki bo'lgan. Endi vaqti kelib, suzish sportning eng ommalashgan ko'rinishi sifatida o'zining ma'lum bosqichlariga ega bo'ldi.

Nazorat savollari:

- 3.1. Suzishning sog'liq uchun qanday ahamiyati bor?
- 3.2. Suzish bilan necha yoshdan boshlab shug'ullanish mumkin?
- 3.3. Dastlabki o'rgatish bosqichida qanday vositalardan foydalanish mumkin?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

I— topshiriq: Suzish fanining ilmiy — nazariy asoslarini tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. D.B.Narziqulov., R.A.Qosimova. « Suzish va uni o'qitish metodikasi». Lektsiyalar kursi. Samarqand—2003. 3 — 86-b.
2. B.N.Nikitskiy. Plavanie. M.Pros. —1981 g. str. 3-15.
3. O.A.Sobirova. Suzish.—Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 1993. 3-7-b.
4. Y.Tangirov, A.N.Levitskiy. Suzish.—Toshkent: «Meditsina» nashriyoti, 1986y. 3— 14-b.

**2-MAVZU: “SUZISHNING TARIXIY RIVOJLANISHI.
O‘ZBEKISTONDA SUZISH SPORTINING RIVOJLANISHI”**

Fanni o‘qitish texnologiyasi:

**“Suzishning tarixiy rivojlanishi. O‘zbekistonda suzish sportining rivojlanishi”. mavzusidagi
ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi.**

№	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: Talabalarga suzishning sog‘liqni mustahkamlashdagi ahamiyati, suzishning kelib chiqish tarixi haqida ma’lumot berish., Uzbekistonda suzish sportining tarixi xakida ma’lumotlarni berish 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Suzishning sog‘liqni mustahkamlashdagi tutgan o‘rni tushuntirib bera oladi. 1.2.2. Suzishning organizmni chiniqtirish manbai va turli kasalliklarni oldini olishda samarali vosita sifatida ta’sir etishini izohlab bera oladi. 1.2.3. Suvning xossalari haqida so‘zlab bera oladi. 1.2.4. Suzish sportining O‘zbekistonga kirib kelishi va dastlabki rivojlanish bosqichi haqida gapirib beradi. 1.2.5. O‘zbekistonda o‘tkazilgan dastlabki musobaqalar haqida so‘zlab bera oladi. 1.2.6. O‘zbek suzish sporti tarixida Jahon va xalqaro musobaqalarda zafar quchgan suzuvchilarni sanab bera oladi. 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Anatomiya, fiziologiya, arxeologiya, geografiya, gigiena, pedagogika, psixologiya, fizika va h.k. Muskul, bo‘g‘imlar, markaziy nerv sistemasi ta’siri, suvning harorati, suvning tozaligi, suvning gigienik holati, tashqi muxit, ajdodlarimizda suzish, odamning suvga moslashishi, yoshga qarab suzish, o‘rta va katta yoshdagi bolalarning suvda suzishi va h.k. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma’ruza matni, o‘quv-uslubiy majmua, o‘quv qo‘llanma, rasmlar, videoproektor	O‘qituvchi
2	O‘quv mashg‘ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e’lon qilinadi. 2.2. Ma’ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi.	O‘qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitaladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to‘g‘riligi tekshiriladi.	O‘qituvchi-Talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma’lumotlarni talabalar tamonidan qanday o‘zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Suzish sporti kanday va kachon paydo bulgan. - Suzishning organizmni chiniqtirishdagi urni xakida gapirib bering.	O‘qituvchi 15 minut

	-Uzbekistonga suzish sporti kanday kirib keldi va rivojlanishiga nimalar turtki buldi? -Mustakillikdan sung Uzbekistonda suzish sportiga bulgan e'tibor? 4.2. Eng faol talabalar (baxolash mezoni asosida) baholanadi	
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	O'qituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. Suzishning sog'liqni mustahkamlashda tutgan o'rni.
2. Suzishning kelib chiqish tarixi.
3. O'zbekistonda suzish sportining kelib chiqishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Suv muolajalari, suvning harorati, yosh bolalarda suzish, suvning tozaligi, tashqi muxit; suv vannalari, suvda turish vaqti, tibbiy omillardan foydalanish, suzishning paydo bo'lishi, birinchi suzish federatsiyasining tuzilishi va h.k. rejalashtirish, sinflarga taqsimlash, suzishning kelib chiqishi, mavjud usullari, krol, brass, baterflyay va h.k. olimpiya o'yinlaridagi turlari, federatsiya nomi, nechanchi yillardan texnikaga e'tibor qilingan.

Mavzuga oid muammolar:

1. Suzish hayotiy zarur ko'nikma hisoblanadi. Suzishning paydo bo'lishi va rivojlanishiga qanday omillar ta'sir etgan deb hisoblaysiz?
2. O'zbekistonda suzish sporti rivojlanishining ilk davri 1924 — 25 yillarga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda suzish sportining rivojlanishiga -nimalar turtki bo'lgan deb hisoblaysiz?

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga suzishning sog'liqni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Suzishning sog'liqni mustahkamlashdagi tutgan o'rnini tushuntirib bera oladi.
- 1.2. Suzishning organizmni chiniqtirish manbai va turli kasalliklarni oldini olishda samarali vosita sifatida ta'sir etishini izohlab bera oladi.
- 1.3. Suvning xossalari haqida so'zlab bera oladi.

Birinchi asosiy savolning bayoni:

Odam gavdasi bir butun holda mutanosib rivojlanadi. Bejiz emaski, suzish bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan bolaning bo'g'inlari harakatli, mustahkam, bir me'yorda harakatlanadigan, paylari, mushaklari yaxshi taraqqiy etgan bo'ladi. Ayniqsa, odam organizmning suvda gorizontol holda harakatlanishi, uning tik turib bajaradigan harakatlari pay, mushak bo'g'imlariga bir tomondan ta'sir ko'rsatsa, suvda suzib bajaradigan mashqlari unga ikkinchi tomondan ta'sir ko'rsatadi.

Gavdaning raso va asl bo'lib rivojlanishida, ayniqsa, umurtqa pog'onasi qiyshayib qolishini oldini olishda suzishning ahamiyati juda katta. Shu bois ham suzish umurtqa pog'onasi kasalliklarini davolashda keng tavsiya qilinadi.

Suvda suzish organizmni chiniqtirish manbai hamdir. Buni, albatta, dastlab suv muolajalaridan keyin boshlash kerak. Chunki suv o'zining fizik xossalari, ya'ni issiqlikni o'ta o'tkazuvchanligi, katta issiqlik sig'imiga ega ekanligi va teriga mexanik ta'sir ko'rsatishi bilan suvga o'rganmagan organizmni shamollatib qo'yishi mumkin.

Bolalarni yoshligidan suvga o'rgatib, suvda cho'milishiga qiziqish uyg'otish kerak. Bolani suvdan ko'rkmaydigan qilish uchun suvning haroratini asta—sekin pasaytirib borish lozim. Bolani asosan, 4 — 5 yoshdan suzishga o'rgatish lozim.

Nazorat savollari:

- 1.1. Suzishning inson sog'ligi uchun ahamiyati nimadan iborat?
- 1.2. Suzishdan qaysi kasalliklarni davolashda vosita sifatida foydalanish mumkinligini sanab ko'rsating.
- 1.3. Suvning fizik xossalari haqida so'zlab bering.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga suzishning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Suzishning paydo bo'lishi tarixi haqida gapirib bera oladi.
- 1.2. Suzishning amaliy ahamiyati haqida tushuncha bera oladi.
- 1.3. Suzishning rivojlanish bosqichlarini yoritib beradi.

Ikkinchi asosiy savolning bayoni:

Geologiya fanidan ma'lumki, tabiatda suv juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U tog' jinslarini parchalab, eritib, erigan tog' jinslarini va boshqa moddalarni oqizib kelib tuproq qatlamini hosil qilgan. Dastlabki eng sodda organizmlar xuddi ana shu suv bag'rida paydo bo'lgan va yillar o'tishi bilan asta—sekin quruqlikda qolib hayot vujudga kelgan.

Ular asta—asta suv osti boyliklarini topib foydalanishgan. Masalan: suv osti chig'anoqlari, durlar kabilarni, keyinchalik esa qimmatbaho minerallar olib chiqishni o'rganishgan. Ko'rinib turibdiki, inson hayoti qadimdan suv muzligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayniqsa, er kurrasining janubiy mamlakatlarida yashovchi qabilalar uchun bolalarni suvda suzishga o'rgatish hayotiy zarurat sanalgan. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, eramizdan oldingi 3 — 4 minginchi yillar Yunonistonda odamlar suzishni bilgan va ular suvda cho'milishni gigienik yuqori baholaganlar. Sharq mamlakatlarida, xususan, O'rta Osiyoda Amudaryo bilan Sirdaryo va Orol soxillarida yashovchi xalqlar bir tomondan tirikchilik bo'lsa, ikkinchi tomondan harbiy mashg'ulot sifatida suzishni o'rganishgan. O'zbekyston o'zining anxorlari, ko'llari, daryolari va suv havzalariga ega bo'lgan serquyosh respublikadir. Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Angren kabi daryolari soxili atrofida yashovchilar qadimdan bu tabiiy boyliklarni insonlar hayoti uchun bo'ysundirish bilan kurashib kelganlar. Talaygina kanallar, suv omborlari, suv havzalari bunyodga keltirilgan. Ular axoli uchun baliq ovlash, ekin sug'orish, ro'zg'orda foydalanish va shu bilan birga hayotiy zarurat bo'lgan suzishga o'rganish manbai bo'lib xizmat qilib keldi.

Nazorat savollari:

- 1.1. Suzishning ilk paydo bo'lishi qaysi davrlarga to'g'ri keladi?
- 1.2. Suzishning amaliy ahamiyats nimadan iborat?

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga suzish sportining O'zbekistondagi rivojlanish tarixini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 3.1. Suzish sportining O'zbekistonga kirib kelishi va dastlabki rivojlanish bosqichi haqida gapirib beradi.
- 3.2. O'zbekistonda o'tkazilgan dastlabki musobaqalar haqida so'zlab bera oladi.
- 3.3. O'zbek suzish sporti tarixida Jahon va xalqaro musobaqalarda zafar quchgan suzuvchilarni sanab bera oladi.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:

O'zbekistonda suzish sportining boshlanuvchi rivojlanish davri 1924 — 25 yillarga to'g'ri keladi. Ya'ni bu yillarda birinchi marta gidrostantsiyalar kurila boshlandi. Masalan: Toshkentda Bo'zsuv to'g'on bilan to'sildi, natijada suv ombor hosil qilindi. Bu esa o'z navbatida sevimli dam olish va cho'milish joyi bo'lib qoldi. Sal keyinroq esa bu suv omborda ikkita suv stantsiyalari qurilib, suzish basseyni va balandlikdan sakrash ustunlari bunyod etildi. 1927 yilning yozida respublikada birinchi marta shu stantsiyada Toshkent va Samara (hozirgi Kuybishev) shaharlari o'rtasida suzish bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Bu esa 1928 yilda bo'ladigan 1 — butunittifoq, spartakiadasiga qatnashuvchi O'zbekiston terma komandasiga a'zo bo'luvchi suzuvchilarni saralashda yordam berdi. Nixoyat, O'zbekiston terma komandasining suzuvchilari juda sust ishtirok etib, Turkmaniston komandasidan yuqorilab, 16- o'rinni egalladilar.

1928 yilda o'tkazilgan spartakiada O'zbekistonning Buxoro, Andijon, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlarida ham suzish sportining rivojlanishi uchun turtki bo'ldi. 60-yillarda Toshkent to'qimachilik kombinati qoshida stadion va uzunligi 50 m suvi isitiladigan ochiq basseyn kurilib ishga tushirildi.

1935 yili Andijonning sun'iy suv havzasida birinchi marta suv sporti bayrami o'tqazilib, bunda suzish bo'yicha respublika birinchiligi uchun musobaqa o'tkazildi. Andijon, Qo'qon, Toshkent, Farg'ona shaharlarining eng kuchli suzuvchilari o'zaro kuch sinashdilar. Birinchilikda Aleksandr Vaginin (Toshkent), Nikolay Zokirov (Toshkent), Valentin Mixaylov (Toshkent), Nikolay Dovidenko (Andijon) Respublika chempioni degan unvonga sazovor bo'ldilar. Aslida ularning ko'rsatkichlari 2 razryaddan yuqori emas edi.

1936 yilning oxirida Toshkentdagi Temir yo'lchilar istirohat bog'ida uzunligi 25 m ochiq basseyn qurib tikazildi va 1937 yildan boshlab, u erda birinchi marta suzish bo'yicha bolalar sport maktabi (DSSH) tashkil etildi va uning treneri qilib V. Mixaylov tayinlangan edi.

1939 yili Toshkent shaxrida 6 gektarlik katta ko'l va istiroxat bog'i barpo qilindi. Unda tashkil qilingan ikkita suv stantsiyalari Dinamo va Spartak uzoq, yillar respublika terma komandasi suzuvchilari uchun asosiy baza bo'lib xizmat qildi. Shu erda respublikamizning dastlabki trenerlari etishib chiqdi va ishladi. Bular: A.K.Smirnov, V.T.Zondarenko, N.T.Shuljenko, V.N.Mixaylov va boshqalar.

1939 yili O'zbekistonda suzish bo'yicha respublika federatsiyasi tuzildi, unga K.Smirnov rais etib tayinlandi. 1948 yili birinchi marta Qozog'iston va O'rta Osiyo respublikalarining komandalari o'rtasida suzish bo'yicha musobaqa bo'lib, respublikamiz terma komandasi birinchilikni olgan.

1948—1949 yillar mobaynida Andijon, Namangan va Qo'qon shaharlarida 25 m ochiq basseyn qurib, ishga tushirilib, ular qoshida o'smirlar maktabi (DYuSSH) ochildi.

Respublikada yangidan — yangi qobiliyatli yosh sportchi suzuvchilar etishib chiqqa boshladi. Alla Mixaylina, Tamara Potapova, Aleksandr Arxipov, Yuriy Frolov kabilar shular jumlasidandir. Masalan, Frolov 1974 yili baterflyay usulida (2 32) suzib, sobiq Ittifoq chempioni rekordchisi bo'ldi.

1960 yillarga kelib, Toshkentda bir nechta yirik basseynlar kurila boshlandi. Bularga 1979 yili O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya instituti qoshida tashkil etilgan 25x 12 m suvi isitiladigan ochiq basseyn, 1962 yili noyabr oyida mexnat rezervlariga qarashli ko'ngilli sport jamiyati (DSO) qoshida barpo etilgan. 12x12 m yopiq basseyn 1974 yilning mart oyida ochilgan. «Mexnat» jamiyatiga qarashli 20x21 yopiq basseyn 1963 yili ishga tushirilgan.

Armiya sport klubining 20x21 m ochiq basseyn va 1963 yili Navoiy shaxrida tashkil etilgan 20x21 m ochiq basseynini misol keltirish mumkin. Oradan ko'p vaqt o'tmay bularning samarasi ko'zga tashlana boshladi.

O'zbekiston sportchi suzuvchilari o'z mahoratlarini oshira borib, yangi marralar sari yuqori pog'onalariga ko'tarila boshladilar.

Chunonchi, respublikamiz suzuvchilari 1966, 1969 yillarda sobiq ittifoq xalqlarining 1 va 2 spartakiadalarida qatnashib, 9 o'rinni olgan bo'salar, 1969 yilda bo'lib o'tgan sobiq Ittifoq xalqlarining 3 spartakiadasida 8 o'rinni oldilar. Erkin usulda 4x100 m.ga estafeta suzishda qizlarimiz Svetlana Babanina, Natalya Ustinova, Raisa Tanina va Rita Pavlovalar chempionatning oltin medalini qo'lga kiritdilar.

Nazorat savollari:

- 3.1. Suzish sportining O'zbekistonga kirib kelishi davri haqida ma'lumot bering.
- 3.2. O'zbek suzuvchilarining xalqaro musobaqalardagi ishtiroki haqida gapirib bering.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

2—topshiriq: O.Sobirovaning «Suzish» nomli kitobidan O'zbekistonda suzish sporti tarixi va o'zbek suzuvchilari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. D.B.Narziqulov., R.A.Qosimova. «Suzish va uni o'qitish metodikasi». Lektsiyalar kursi. Samarqand — 2003. 9 — 21-b.
2. B.N.Nikitskiy. Plavanie. M.Pros. -1981 g. str. 15-25.
3. O.A.Sobirova. Suzish.—Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 1993.10-15-b.
4. Y.Tangirov, A.N.Levitskiy. Suzish. — Toshkent: «Meditsina» nashriyoti, 1986y. 10—14-b.

3-MAVZU: “SUZUVCHI SPORTCHILARNING ANATOMIK VA FIZIOLOGIK JIHATLARI”

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Suzuvchi sportchilarning anatomik va fiziologik jihatlari”. mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi.

№	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: Talabalarga suzish sportida gavda tuzilishining ahamiyatini, bo'g'im va mushaklar harakatchanligi va gavda tuzilishining ahamiyati haqida ma'lumot berish 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1.. Suzish paytida organizmda kechadigan fiziologik jarayonlar haqida gapirib bera oladi. 1.2.2 Tananing anatomik xususiyatlarini sanab bera oladi. Fiziologik va anatomik xususiyatlarning suzish texnikasiga ta'sirini izohlab bera oladi. 1.2.3. Talaba bo'g'im harakatchanligining suzish texnikasiga ta'sirini gapirib bera oladi. 1.2.4 Talaba har qaysi sport turida ma'lum bir bo'g'imlar harakatchan bo'lishi lozimligini sanab beradi. 1.2.5.. Talaba mushaklarning harakatchanligi suzishga ta'sir etishini gapirib bera oladi. 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Gavdaning tuzilishi, qo'l—oyoqlarning uzunligi, bo'tinlardagi harakat, elka harakati, bel harakati, boldir, panja bo'g'imlardagi harakatlar, chanoq son harakati, suzuvchining muskullari, suvning harorati, yosh bolalarda suzish, o'rta yoshli bolalarda suzish, suvning tozaligi, tashqi muxit, suv vannalari suvda turish vaqti, tibbiy omillardan foydalanish, umumiy qo'l—oyoq, gavda harakati, nafas olish, nafas chiqarish. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma'ruza matni, o'quv-uslubiy majmua, o'quv qo'llanma, rasmlar, videoproektor	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi.	O'qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi.	O'qituvchi-Talaba, 40 minut
4	Mustaxkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma'lumotlarni talabalar tamonidan qanday	O'qituvchi 15 minut

	o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: -Inson organizmida xarakat va funktsiyalar kanday boshkariladi? - Suzuvchi suzganda uning oragnizmida qanday fiziologik jarayonlar kechadi? -Bugim xarakatchanligining suzish texnikasiga kanday alokadorligi bor? 4.2. Eng faol talabalar (baxolash mezoni asosida) baholanadi	
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	O'qituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

- 1.Odamning anatomik xususiyatlari bilan fiziologik imkoniyatlarining suzish texnikasiga ta'siri.
2. Bo'g'im harakatchanligining va mushaklar holatining ahamiyati.
3. Gavda tuzilishining ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Gavdaning tuzilishi, qo'l—oyoqlarning uzunligi, bo'tinlardagi harakat, elka harakati, bel harakati, boldir, panja bo'g'imlardagi harakatlar, chanoq son harakati, suzuvchining muskullari, suvning harorati, yosh bolalarda suzish, o'rta yoshli bolalarda suzish, suvning tozaligi, tashqi muxit, suv vannalari suvda turish vaqti, tibbiy omillardan foydalanish, umumiy qo'l—oyoq, gavda harakati, nafas olish, nafas chiqarish.

Mavzuga oid muammolar:

1. Suzish texnikasi odamning harakat imkoniyatlari hisobiga tashkil topadi va takomillashadi. Shunday ekan, odamning anatomik tuzilishi va fiziologik imkoniyatlari suzish texnikasiga qanday ta'sir etadi?
2. Suvda suzish insonning qo'l va oyoq harakatlari hisobiga amalga oshiriladi. Suzish sporti boshqa sport turlaridan qaysi jixatlari bilan farq qiladi?

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga suzuvchining anatomik, fiziologik imkoniyatlari va ularning suzish texnikasiga ta'sirini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Suzish paytida organizmda kechadigan fiziologik jarayonlar haqida gapirib bera oladi.
- 1.2. Tananing anatomik xususiyatlarini sanab bera oladi.
- 1.3. Fiziologik va anatomik xususiyatlarning suzish texnikasiga ta'sirini izohlab bera oladi.

Birinchi asosiy savolning bayoni:

Odam organizmi bir butun holda harakatchan, o'zgaruvchan, egiluvchan, qayishqoq biologik kompleks bo'lib, uni tashqi muxit bilan mustakil bog'lab turadigan narsa — bu nerv sistemasidir. Nerv sistemasiga uning oliy bo'limlari, ya'ni bosh miya yarim sharlari po'stlog'i va po'stloq osti tuzilmalari, orqa miya va pereferik nervlar kiradi. Har qanday odam a'zolari funktsiyalari shu nerv sistemasi orqali boshqarilib turiladi. O'z davrida I.M.Sechenov, I.P,Pavlov kabi olimlar bu haqida batafsil ma'lumot qoldirganlar.

Hayot davom etishining zaruriy shartlaridan biri moda,alar almashinib turishidir. Moddalar almashinib turgan organizm, demak, tirik yashayapti. Shunday ekan, u hamisha nerv sistemasi vositachiligida ta'sirlanadi va qo'zg'aladi: ta'sirlanganda tashqi muxitning issiq — sovug'ini, qorong'i — yorug'ligini, nam — qurug'ini, tegayotgan bosimning engil — og'irligini, ishning

og'ir- murakkabligini va hokazolarni sezadi, his qiladi, qo'zg'alganda esa mana shu sezish, payqash, his qilish tahlili oqibatida javob berish reaksiyasi yuzaga keladi.

Binobarin, odam ozmi ko'pmi faoliyat ko'rsatadi. Bu faoliyat o'z xajmiga ko'ra biror a'zoni butun bir a'zolari sistemasining yoki yaxlit organizmning bajargan harakati ishi bo'lishi mumkin. Ammo bunday harakatlar, turli —tuman ishlar, faoliyatlar hamisha hamma odamlarda bir maromda muayyan ko'lamda belgilangan xajmda bo'lavermaydi. Chunki odamning ta'sirlanishi bilan qo'zg'alishi bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun ham inson bosh miyasiga xos bo'lgan ruxiyat organizmning ichki muxitiga aloqador hisoblangan qon, limfa, to'qima va serebrosinal suyuqlik hammada bir xil bo'lmaydi. Shunga ko'ra ular tarkibidagi moddalar va ularning kontsentratsiyasi ham bir xil emas. Yana bu erda ana shu moddalarning fizik, kimyoviy, biologik xossalari nisbatan doimiy bo'lish va bo'lmasligi ham ahamiyatga ega. Masalan: shulardan birgina qonni misol qilib oladigan bo'lsak, uning reaksiya faolligi undagi qand miqdori oziq bo'ladigan moddalarning oz — ko'pligi asmatik va arterial bosimning harorati, qolaversa, yurak urishini, qonni xaydash miqdori, kuchi, maromi va boshqalar xilma— xildir.

Nazorat savollari:

- 1.1. Kishining anatomik tuzilishi xususiyati suzish texnikasiga ta'sir etadimi?
- 1.2. Suzuvchi suzganda uning oragnizmida qanday fiziologik jarayonlar kechadi?
- 1.3. Kun tartibi ham suzish texnikasiga ta'sir etishi mumkinmi?

Ikkinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga bo'g'im va mushaklar harakatchanligi ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Talaba bo'g'im harakatchanligining suzish texnikasiga ta'sirini gapirib bera oladi.
- 1.2. Talaba har qaysi sport turida ma'lum bir bo'g'imlar harakatchan bo'lishi lozimligini sanab beradi.
- 1.3. Talaba mushaklarning harakatchanligi suzishga ta'sir etishini gapirib bera oladi.

Ikkinchi asosiy savolning bayoni:

Anatomiya fanidan yana shu narsa ma'lumki, odam gavdasini tashkil etuvchi suyaklar, tog'aylar, paylarning tuzilishida, bir xillik bo'lsa ham ba'zi xususiyatlari, xossalari, masalan: katta — kichikligi bilan bir — biridan farq qiladi. Agar bu farqlanishlarga inson ruxiyatining atrof muxitga munosabati, tabiat va jamiyatga bo'lgan ta'siridagi farqlarni ko'rsa, masalan yana ham oydinlashadi. Ayniqsa, sportchilar jismoniy chiniqish natijasida baquvvatlilik, kuchlilik, ularning qarshilikdan qo'rqmaslik, to'siqlarni engib o'tishlik, tushkunlikka tushmaslik, qolaversa, chidam va matonat sari olg'a intilishlik kabi hislatlarga ega bo'ladi. Agar ularning turmush tarzi hayot faoliyatini kuzatadigan bo'lsak, ularning idrok bilan ish yuritishini, hamisha tartib intizomga rioya etishlarini, vaqtni tug'ri taqsimlay olishlarini, ya'ni ertalab ma'lum paytda o'rindan turish, ma'lum paytda ovqatlanishni, mashg'ulotlarga borishni, dam olishni va muayyan vaqtda yotib uxlashni payqash mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, sportchilar kun tartibiga qat'iy rioya qilgan holda yashaydi. hayot kechiradi va ishlaydi. Ma'lumki, sportchilar mushaklari xajmi, kuchi, tarangligi, zichligi, qayishqoqligi va chidami bilan oddiy kishilarnikidan farq qilib turadi, chunki, sportchilarning mushaklari doimiy yuklanishda, zo'riqishda bo'ladi. Fiziologlar mushaklar o'z tabiatiga ko'ra doimiy jismoniy yuqlanishda bo'lmog'i lozim deb bekorga aytmaganlar. Buning ustiga muttasil harakatda bo'lgan mushaklar qon yurishishiga ko'maklashib yurakni uzluksiz to'la qon bilan ta'minlashda ishtirok etadi. Qolaversa, faol harakat qilgan mushak, o'z navbatida, yaxshi oziqlanadi. Kam harakat odamlar esa mushaklarini talab darajasida ishga tushirmasliklari tufayli mushaklarini ishdan chiqaradilar. Oqibat natijada, ular zaif tortib qisqarib ham ketadi. Tolalari ipday bo'lib qoladi. Biror bir ish bajarmoqchi bo'lsalar ojizlik qilib qoladilar. Mushaklar va paylari darxol cho'zilib qolib, butunlay yaroqsiz xolga kelib qoladi. Bo'g'imlari ham faol harakatlana olmaydigan zaif, tuz yig'iladigan suyaklari salga chiqadigan va arzimagan urushlardan darz ketadigan bo'lib qoladi.

Qolaversa, qaddi—qomati xunuk odamlarni sportchilar orasida deyarli ko'rmaysiz. Ayniqsa, suzish bilan bolalikdan yoshlikdan shug'ullanib borish odam qomatiga ham, anatomik, fiziologik tuzilishiga ham, ruxiy asabiy holatiga ham va eng muhimi salomatligiga beqiyos darajada ta'sir ko'rsatadi. Xatto suzishni mashq qilishga o'tishning boshlang'ich davri bilan chinakam suzuvchi sportchi bo'lib etishgan davr ichidagi odamda bo'ladigan tafovutni ham yaqqol payqash mumkin. Ma'lumki, suzish odamning turli—tuman, katta—kichik va kuchsiz harakatlarini gorizontol vaziyatda bajarish natijasida yuzaga keladi. Binobarin odam mana shunday harakatlarni istalgancha erkin, istalgancha uzoq va uyg'un bajarishi lozim. Shunda u o'z xatti-harakatlariga muayyan shakl bera oladi. Buning uchun esa suzuvchi sportchining gavda tuzshshshi, mushaklarining mutanosib bo'lishi, bo'g'imlari o'z tuzilishiga ko'ra istalgan harakatlarga bo'ysuna olishi kerak bo'ladi.

Bo'g'imlari yaxshi rivojlangan, harakati engil sportchilar gavda holatini va umumiy harakatlarning mutanosibligini o'zgartirmasdan katta yoy bo'ylab erkin va oson harakat qilishlari lozim. Zaruriyat tug'lsa, bunga katta mushak gruppalarini jalb qilishlari ham mumkin. Harakatlarni katta tebranishda, yani harakat amplitudalarni uzun olib bajarish suzuvchi sportchilar suzish texnikasining asosiy shartlaridan biri bo'lib, bu quvvatni, energiyani tejab sarflashga yordam beradi.

Sportchi bo'g'imlaridagi harakatlarning sustligi, erkin bo'la olmasligi suzish texnikasini tqg'ri bajarishda qiyinlik tutdiradi, mashqarni bajarish samaradorligini pasaytiradi, natijada, qo'shimcha harakatlarni bajarish talab etiladi, bunda esa energiya ko'p sarf bo'ladi, mushaklar toliqadi, yurakka zo'r kelib, tez charchash alomatleri paydo bo'ladi.

Qo'llarning harakatchanligi, bir qaraganda, faqat elka bo'g'imlari holatiga bog'liqdek ko'rinadi, aslida esa ularning erkin va uyg'un harakat qilishi umurtqa pog'onasi holatiga, aniqrog'i umurtqaning ko'krak va bel qismlari qayishqoqligiga ham bog'liqdir. Masalan, umurtqaning ko'krak elka qismi etarli darajada harakatchan bo'lmasa, batterflyay, ya'ni delfin usulida suzuvchi sportchi qo'l, bilak tayyorgarlik harakatlarini bajarayotganida istasa—istamasa gavdaning yuqori qismini ko'tarishga majbur bo'ladi.

Brass usulida suzishda esa chanoq, son, ayniqsa, tizza bo'g'imi, boldir, panja bug'imlarining istalgancha erkin harakat qila olish, ya'ni harakatchanligi muhim. Chunki shu bo'g'imlardan birortasida harakatlar sal bo'lsada, cheklanib qolsa, oyoqlar bilan keng eshish harakatlarini bajarishda qiyinchilik tug'ilib qoladi.

Umurtqa pog'onasining bo'yin qismi harakatchanligi, qayishqoqligi sust kechsa, krol' usulida suzayotgan sportchi nafas olish uchun talab qilinganidek, boshini yonga burib qolmasdan yuqoriga ko'tarishga majbur bo'ladi, Sportda 5—10 sm.gina emas, 5—10 mm qo'shimcha harakat ham ortiqchalik qilganidek, suzib ketayotgan odamning boshini qo'shimcha ravishda yuqoriga ko'tarish umumharakatlarning shakliga, uyg'unligiga putur etkazadi. Bu esa, o'z navbatida, gavdaning ortiqcha tebranishiga, gavdaning umumholatiga ta'sir qiladi va oqibat natijada—sportchining suzish jarayonini buzib qo'yadi.

Boldir panja bo'g'imlarida harakat sust bo'lgan holda esa krol' usuli bilan ko'krakda yoki chalqancha yotib, oyoqlar yordamida suzishda sportchilar yaxshi ko'rsatkichlarga erisha olmaydilar. Ba'zan oldinga tuzukkina siljiy olmaydilar ham. Sababi odam bunday usulda suzganda asosan oyoqlar panjasi suzuvchini oldinga siljitadi. Shunday ekan, panjalarning tuzilishi va ularning suzish paytidagi holati katta ahamiyatga egadir.

Shularni nazarda tutib, biz suzuvchi sportchilarga suzish usullariga qarab bug'imlar harakatiga jiddiy e'tibor berishni, mashg'ulotlar paytida ularni tinmay mashq qildirishni tavsiya qilamiz.

Ma'lumki, mushaklar bosh miyaning ostki markazlaridan qolgan impulsler mazmuniga, doimiyiligiga qarab, qisqaradi yoki cho'ziladi. Tunga qarab, oyoq yoxud qo'l biror harakatni bajaradi. Binobarin, mexanik ish qiladi va shu bilan odam gavdasini harakatga keltiradi, oldinga siljitadi.

Hammaga ma'lumki, suzish paytida suzuvchining mushakleri statik mushaklardagidek, uzoqroq qisqarib turmaydi, aksincha, tezkorlik bilan dinamik ish bajaradi. Buning uchun esa mushaklar qayishqoq, harakatchan bo'lishi dozim. Mushaklarning jadal qisqarib, jadal bo'shashini fiziologik almashinuv, yirik antoginistik mushaklarning o'zaro kelishib harakatlanishi va ular harakatiga mushaklarning uyg'ui qo'shilishi sportchining suzishini tezlashtiradi, vaqtini tejaydi.

To'g'ri, mushaklar tez suratlar bilan zo'r berib qisqarar ekan, u nisbatan tezroq charchaydi. Ammo u qancha tez harakatlansa, yurakka qon borishi shuncha tezlashadi, bu xodisa bizga fiziologiyadan ma'lum.

Suzuvchi odatda, o'zi tanlagan usulni mashklar turkumida pishitib etiltiradi va shu borada u suzish texnikasini idrok qila boshlaydi.

Suzish texnikasini miyasida bus —butun gavdalanitra olgan sportchini ancha narsaga erishdi, desa bo'ladi. Chunki butun xatti — harakatlar ipidan ignasigacha unga ma'lum bo'ladi. Endi u o'zida shu bilgan, idrok qilib olgan harakatlarni tegishli mushaklarini tegishli ishga solib amalga oshirishi, ko'nikma hosil qilish kerak. Suzuvchining texnikasi qay darajada sifatli chiqishini tayyorgarlik vaqtida, quvvatini tejay bilish va zo'r kuch talab qiladigan eshish harakati paytida undan tejamkorlik bilan foydalana olishi xal etadi. Bundan tashqari, suzib ketayotganda mushaklarni zo'riqtirib taranglashtirish ham suzish texnikasini buzadi, erkin nafas olish imkoniyatini chegaralab qo'yadi.

Nazorat savollari:

- 2.1. Bo'g'imlar harakatchanligini oshirish uchun nimalar qilish lozim?
- 2.2. Har qaysi sportcha suzish usuli uchun qaysi bo'g'imlar harakatchan bo'lmog'i lozim?
- 2.3. Masofani bosib o'tishda mushaklar ahamiyati nimadan iborat?

Uchinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga suzish sportida gavda tuzilishining ahamiyatini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

3.1. Talaba suzuvchi gavdasi tuzilishidagi mutanosiblik suzish texnikasini egallashdagi ta'siri haqida gapirib bera oladi.

3.2. Talaba suzish sportiga tanlab olishda antropometrik ko'rsatkichlarni ahamiyatini gapirib bera oladi.

3.3. Aloxda suzish usullari bilan shug'ullanuvchi sportchilarning gavda tuzilishidagi farqlarini sanab bera oladi.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:

Gavda tuzilishining ahamiyati. Gavda tuzilishidagi mutanosiblik suzish texnikasini egallashda muayyan darajada ahamiyatga ega. Masalan, yaxshi rivojlangan uzun qo'l oyoqli vazni o'rtacha suzuvchi sportchilar bir qadar yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishlari mumkin. Buni dunyoda taniqli bo'lgan suzuvchi sportchilar faoliyatidan payqash mumkin bo'ladi. Aksariyat xollarda ular baland bo'yli, qo'l—oyoqlari uzun vaznlari nisbatan engil bo'ladi. Bejiz emaski, 14 —17 yoshli o'smir suzuvchi sportchilar mushaklari rivojlanishi aytarli darajada bo'lmasa — da, vazni engilligi hisobiga ko'p xollarda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladilar. Shuning uchun ham bo'lajak suzuvchi sportchini tanlashda uning shu jixatlari hisobga olinadi. Yana shu jixatlariga qarab unga suzish usuli tanlanadi. Ammo bundan hamisha ham to'tri xulosa chiqaravermaydi. Ayniqsa, o'smir yoshda bo'lsa, voyaga etganda uning gavdasida turli xil o'zgarishlar bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli o'smirlar vaqti — vaqti bilan antropometrik tekshiruvdan o'tkazib turiladi, ammo shuni aytib o'tish kerakki, suzuvchi sportchining bo'y va qo'l —oyoqlari uzunligi gavda vaznining kichikligi uning muvaffaqiyati garovi bo'la olmaydi, balki faqat unga zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin. Sportda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun, avvalo, suzuvchi odam organizmining funktsional imkoniyati mashg'ulot paytida egallagan malaka va ko'nikmasi takomilida yotgan harakat usullari zarurdir.

Delfin usulida suzuvchilar, odatda, o'rta bo'yli, tanasi uzun, oyoqlari nisbatan kalta, elka, tana, qo'l —oyoqlari mushaklari erta rivojlangan bo'g'inlari harakatchan bo'ladi. Chalqancha usulda suzuvchilar esa baland, qo'l —oyoqlari uzun, elka, qo'l mushaklari yaxshi rivojlangan, ko'krak qafasi keng, bo'g'inlari harakatchan bo'lishi lozim.

Brass usulida suzuvchilar aksariyat o'rta bo'yli, og'ir vaznli bo'lib, ayniqsa, chanoq son mushaklari, qolaversa, son va boldir mushaklari yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Nazorat savollari:

- 3.1. Suzuvchi gavdasining suzish texnikasiga qanday ta'siri bor?
- 3.2. Sportchini ma'lum bir sport turiga tanlab olishda shug'ullanuvchining qanday imkoniyatlari inobatga olinadi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

3 —topshiriq: O.Sobirovaning «Bolalar suzishni o'rganing» nomli kitobidan suzuvchilarning anatomik va fiziologik jixatlari haqida ma'lumotlarni o'rganish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. D.B.Narziqulov., R.A.Qosimova. «Suzish va uni o'qitish metodikasi». Lektsiyalar kursi. Samarqand —2003. 22 — 29 b.
2. B.N.Nikitskiy. Plavanie. M.Pros. -1981 g. 66-98 b.
3. O.A.Sobirova.Suzish. — Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 1993. 33-386.
4. Y.Tangirov, A.N.Levitskiy. Suzish.-Toshkent: «Meditsina» nashriyoti, 1986 y. 40 - 45 b.

4-MAVZU: “SUZISH TEXNIKASINING UMUMIY ASOSLARI”

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Suzish texnikasining umumiy texnikasi”. mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.

№	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1	Tayyorlov bosqichi: Dars maqsadi: Talabalarga suzish texnikasi va ularni belgilovchi omillar, suv muxiti uchun asosiy fizik qonunlar xamda statik va dinamik suzish texnikalari haqida ma’lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Suzish texnikasini belgilab beruvchi omillarni sanab beradi 1.2.2 Suv muxiti haqida so’zlab beradi, suzish texnikasini ifodalab suzish usullarini sanab beradi. 1.2.3. Suzish paytida suzuvchiga ta’sir etuvchi kuchlarni sanab bera oladi. va gavda suzuvchanligi haqida gapirib bera oladi. 1.2.4 Statik suzish va. tananing suzuvchanligi haqida gapiradi. Suzish paytida tananing muvozanati haqida gapirib beradi. 4. Dinamik suzish haqida so’zlab beradi 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Suvning yopishqoqligi, suvning zichligi, suvning siqiqqligi, suvning solishtirma ogirligi, statik suzish, dinamik suzish, qarshilik, qo’l va oyoq, harakati, ogirlik kuchi, ko’tarish kuchi, gidrodinamik, aerodinamika, gidrostatik kuch, aerodinamik kuch, tananing umumiy harakati. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma’ruza matni, o’quv-uslubiy majmua, o’quv qo’llanma, rasmlar, videoproektor	O’qituvchi
2	O’quv mashg’ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e’lon qilinadi. 2.2. Ma’ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi.	O’qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitaladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to’g’riligi tekshiriladi.	O’qituvchi-Talaba, 40 minut
4	Mustaxkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma’lumotlarni talabalar tamonidan qanday o’zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Suzish texnikasiga ta’rif bering va u kaysi omillar yordamida belgilanadi? - Suzish vaktida tanaga nechta va kanday kuchlar ta’sir etadi? - statik va dinamik suzish nima? 4.2. Eng faol talabalar (baxolash mezonini asosida) baholanadi	O’qituvchi 15 minut
5	O’quv mashg’ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. O’qituvchi o’z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o’zgartirishlar kiritadi.	O’qituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. Suzish texnikasi haqida umumiy tushuncha.
2. Suv muxiti uchun asosiy fizik qonunlar.
- 3.. Statik va dinamik suzish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Suvning yopishqoqligi, suvning zichligi, suvning siqiligi, suvning solishtirma ogirligi, statik suzish, dinamik suzish, qarshilik, qo'l va oyoq, harakati, ogirlik kuchi, ko'tarish kuchi, gidrodinamik, aerodinamika, gidrostatik kuch, aerodinamik kuch, tananing umumiy harakati.

Mavzuga oid muammolar:

1. Suzish texnikasi bir necha omillar yordamida belgilanadi. shunday omillardan bittasi suv muxiti uchun xos bo'lgan asosiy fizik qonunlardir. Suv muxiti uchun xos bo'lgan fizik qonuniyatlarning suzish texnikasiga ta'sirini qanday izohlaysiz?
2. Suvdan inson tanasiga bir. necha kuchlar ta'sir etadi. Dinamik va statik suzishda inson tanasiga ta'sir etuvchi kuchlar haqida ma'lumot bering.

Birinchi savol buyicha dars maqsadi: Talabalarga suzish texnikasi va ularni belgilovchi omillar haqida tutpunchalar berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Suzish texnikasini belgilab beruvchi omillarni sanab beradi.
2. Suv muxiti haqida so'zlab beradi.
3. Suzish texnikasini ifodalab beradi.
4. Suzish usullarini sanab beradi.

Birinchi asosiy savolning bayoni:

Suzish texnikasi deganda, harakatlarni mutanosib ravishda namoyon qilish tushuniladi. Bu esa ma'lum harakat koidalariga rioya kilgan holda bo'ladi. Aks holda oddiy suvda cho'miluvchilar suzishidan farki kolmay koladi. Buning uchun, avvalo, suzishning shakli, harakat usullari va shu harakatlarning o'zaro qovushishi, mos kelishi talab etiladi. Shunda sportchi o'zining tashqi va ichki kuchlarini yuqori darajada safarbar qila oladi. Suzuvchining muntazam ravishda «bir qolipga tushib suzish» tabiatini egallashi bora —bora uning individual suzish texnikasiga aylanib boradi. Endi u o'zining butun harakat va funktsional imkoniyatlarini o'z texnikasi asosida ro'yobga chiqaradigan bo'ladi. Bu odatda, individual texnika deyiladi.

Individual texnika doimiy ravishda rivojlantirib, takomillashtirib borishni talab etadi.

Individual texnika qanchalik takomillashsa, u shunchalik engil ko'chadigan bo'lib boradi va yangidan —yangi turlar ustida mashq qilish imkoniyati tugiladi.

Suzish texnikasi bir necha omillar yordamida belgilanadi. Bularga maqsadga yo'naltirilganlik va asosiy vazifalar, suzish sharoiti, asosiy fizik qonunlar, inson tanasining anatomik tuzilishi, organizmning fiziologik funktsiyalari kiradi. Suzish texnikasi asoslarini kurib chiqishga kirishishdan suvning tarkibi bilan tanishish lozim. Barcha fizik jismlar singari suv ham massaga ega. Suvning zichligi xavo zichligidan 800 marta ko'p. Shu sababli suv ma'lum inertlikka ega. Tortish kuchini rivojlantirish uchun, ya'ni suzuvchi tanasini oldinga harakatlantirish uchun ishchi harakatlarni tezkorlik bilan bajarish zarur.

Shu bilan birga suv yopishqoqlik xususiyatiga ega. Shu sababli suv harakatta kelganda unda ichki qarshilik yuzaga keladi. Suvning yopishqoqligini kamaytirish uchun uning haroratini ma'lum chegarada oshirish zarur (25 — 26°). Suv haroratini yanada oshirish tananing xaddan isib ketishiga va ish xobiliyatini pasayishiga olib keladi. Suvning xususiyatlaridan yana biri suv yopishqoqligi va harakatchanligi hamda ogirlik kuchi ta'sirida sodir bo'luvchi to'lqin hosil bo'lishidir. To'lqin hosil bo'lishi suzuvchi harakatiga qarshilik qiluvchi kuch hisoblanadi. Suzuvchi harakatlanayotganda sodir bo'ladigan to'lqinlar o'lchami suzuvchining texnik tayyorgarligiga bogliq bo'ladi.

Suzish texnikasi deganda tuzilishi jixatidan turli bo'lgan harakatLarning suzuvchi tomonidan suv muxitida mutanosib bajarishi tushuniladi. Inson suvga tushganda turli harakatlarni bajaradi, bu harakatlar esa tuzilishi jixatidan u yoki bu suzish usulini belgilaydi. Har bir usul o'z ichiga eshish va tayyorgarlik harakatlarini, nafas aktini, muskullarning kuchlanishi va bo'shashini, pgu bilan birga organ va sistemalar ichki ishini o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda barcha suzish usullari, harakat tuzilishi jixatidan sportcha (tugri) va nosportcha (notugri)suzish usullariga bo'linadi. Sportcha suzish usullariga, ko'krakda krol, chalqancha krol'g brass, delfin usullari kiradi. Sportcha suzish usullarining nosportcha usullardan farqi shundaki, sportcha usullarda tananing anatomik tuzilishidan, organizmning fiziologik funktsiyalaridan, gidrostatika va gidrodinamika qonunlaridan samarali foydalaniladi. Shunday qilib, sportcha suzish usullari harakatlarning shunday formalaridan tashkil topganki, bular yirik muskul gruppalaridan samarali foydalanish imkonini beradi, bo'gimlar harakatchanligini oshiradi, organizm barcha sistemalari va organlari faoliyatini hisobga oladi, to'gri ritmik nafas olishni o'zlashtirishga yordam beradi, muskullarni ketma — ket kuchlanish va bo'shashishini o'zlashtirish, ishchi harakatlarni samaradorligini oshiradi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Suzish texnikasiga ta'rif bering.
- 1.2. qanday omillar suzish texnikasini belgilab beradi?
- 1.3. Sportcha suzish va nosportcha suzish usullar farqini aytib bering.

Ikkinchi savol buyicha dars maqsadi: Talabalarga suv muxiti uchun asosiy fizik qonunlarni tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talaba suvning fizik xossalarini sanab bera oladi.
2. Suzish paytida suzuvchiga ta'sir etuvchi kuchlarni sanab bera oladi.
3. Talaba gavda suzuvchanligi haqida gapirib bera oladi.

Ikkinchi asosiy savol bayoni:

Suzish sportida suvning fizik xossalari deganda, odatda, uning qovushqoqligi, zichligi, suvning siqiligi va solishtirma ogirligi tushuniladi.

Suvning qovushqoqligi deganda, suvning harakatlanishga ko'rsatiladigan qarshiligi tushuniladi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, suv harakatlanish xususiyatiga ega, mana shu harakatlanish paytida suv zarrachalari va katamlari bir — biriga surkalib boradi.

Binobarin, qatlamalar o'zaro surkalganda, ular o'rtasida ichki ishkalanish yuzaga keladi va bu ishkalanish esa, o'z navbatida, harakatlanishga qarshilik qiladi. Mana shunda paydo bo'lgan kuch suvning qovushqoligidir.

Suvning qovushqoqligi odatda, shu suvning kimyoviy xossasiga ham, holatiga ham bir qadar bogliqdir. Suv harorati qancha past bo'lsa, uning qovushqoqligi shuncha yuqori bo'ladi.

Masalan, suv harorati 30° bo'lganda, uning qovushqoqligi 20% kamayishi bizga ma'lum.

Suvning zichligi deb xajmi birligidagi massasiga aytiladi. Bu bizga fizikadan ma'lum. Masalan, 1 kg suvning massasi hamisha hamma suvda bir xil emas. Suv qancha sho'r, harorati qancha yuqori bo'lsa, uning massasi shuncha kam bo'ladi. Demak., zichligi kam degan so'z. Chunonchi haroratda 4° li chuchuk suvning zichligi kubometr bilan o'lchaganimizda 1000 kgG'm^3 ga teng. Sho'r dengiz suviniki esa $1010—1030 \text{ kgG'm}^3$.

Suvning siqiligi odatda, suvning zarrachalari va qatlamlarining bosimidan kelib chiqadi. Shu bosim qancha ko'p bo'lsa, suvning siqildigi xajmi shuncha kam bo'ladi. O'z navbatida, suvning siqiligidan gidrostatik bosim kuchi kelib chiqadi. Har qanday suv, xatto tinch holatda turganda ham unda ogirlik kuchi bo'ladi. Bu kuch, bir tomondan suyuqlikning o'z vaznidan paydo bo'lsa, ikkinchi tomondan, atmosferaning unga ko'rsatayotgan ta'siridan yuzaga keladi. Binobarin,

gidrostatik bosim kuchi suvga tushgan odamning hamma eriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Odamning qulogida paydo bo'ladigan ogriq mana shu bosim kuchi ta'sirida yuzaga keladi.

Suvning solishtirma ogirligi deganda, odatda, gavda ogirligining shu gavda xajmidagi suv ogirligiga nisbati tushuniladi. Bu fanda $gG'sm^3$ bilan ifodalanadi. Bu ham suvning kimyoviy tarkibi bilan uning haroratiga bogliq.

Binobarin, suvning zichligi qancha yuqori bo'lsa, uning solishtirma ogirligi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Buning uchun $27-28^{\circ}$ bo'lishi kerak. Bunday haroratdagi suvlarning solishtirma ogirligi $0,998 gG'sm^3$ ga teng bo'ladi. Bu o'rinda, shuni aytib o'tish lozimki, suvda cho'milish uchun faqat suvning solishtirma ogirligi emas, balki suzuvchi tanasining solishtirma ogirligi ham bir qadar rol o'ynaydi. Odam gavdasidagi to'qimalarning solishtirma ogirligi esa har xil. Masalan, teri mushak, suyak tuqimasiniki yog to'qimasinikidan ogir, mushakniki terinikidan, suyakniki mushaknikidan ogir. Umuman olganda, odam gavdasi qismlarining solishtirma ogirligi o'rta hisobda 0,935 dan 1,057 $gG'sm^3$ gacha o'lchanadi.

Bolalar bilan ayollar gavdasi qismining solishtirma ogirligi esa biroz engil bo'ladi.

Chunki—hozir aytganimizdek, ularning yuqori solishtirma ogirlikka ega bulgan suyak va mushaklari erkaklarnikiga qaraganda, yaxshi taraqqiy etmagan bo'ladi. Shunday ekan, suzuvchi sportchining yaxshi ko'rsatkichlariga ega bo'lishiga gavdasining solishtirma ogirligi ham bir qadar rol o'ynar ekan.

Suvga tushgan suzuvchining hamma tomoniga odatda, suvning bosim kuchi ta'sir qiladi deb yuqorida aytib o'tdik. Binobarin, odam suvga qancha chuqur tushsa unga tayzik o'tkazadigan bosim kuchi ham ortib boradi. Ammo mana shu bosim kuchining qay darajada yuqori bo'lishi gavdaning joylashish vaziyatiga va suvning tarkibiga ham bogliqdir.

Chunki odam gavdasi suvda gorizontaal vaziyatda bo'lsa, unga suvning ko'tarish kuchi katta xajmda ta'sir qiladi. Suvning tarkibi haqida yuqorida bir karra eslatib o'tdik. Demak, suvdagi tinch turgan suzuvchiga bir vaqtning o'zida ogirlik kuchi, bu odamning o'z vazni va suvning ko'tarish kuchi (tarkibiga ko'ra yuqoriga itaruvchi kuchi) ta'sir qiladi.

Suzuvchining mana shunday kuchlar ta'sirida bo'lishi statik suzish deyiladi.

Bundan tashqari suzuvchi gavdasiga suvning itaruvchi kuchi ham ta'sir qiladi. Bu kuch odatda, gavda siqib chiqargan suv xajmiga teng bo'ladi.

Suvning har tomonidan yo'nalgan itaruvchi kuchlarning jam bo'lib yo'nalgan nuqtasi suzuvchanlik markazi deyiladi. Bu markaz odatda, siqib chiqarilgan suvning zichlashgan xajmi markaziga tugri keladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Suvning qovushqoqligi, zichligi, siqishuvi va solishtirma ogirligi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Suzuvchi masofani bosib o'tayotgan vaqtda uning tanasiga qanday kuchlar ta'sir etadi?.
3. Suzuvchiga ta'sir etuvchi tashqi qarshililar ta'sirini qanday kamaytirish mumkin?

Uchinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga statik va dinamik suzish texnikalari haqida ma'lumot beradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Statik suzish haqida ma'lumot beradi.
2. Tananing suzuvchanligi haqida gapiradi.
3. Suzish paytida tananing muvozanati haqida gapirib beradi.
4. Dinamik suzish haqida so'zlab beradi.

Uchinchi asosiy savol bayoni:


Suzish texnikasi qanchalik tez takomillashtirilib borilsa, yuqorida aytib o'tganimizdek, sportchining yoshig bo'yi, gavda qismlari rivojlanadi. Sportchining jismoniy chiniquqligi, kuchi va qayishqoqligining roli o'z-o'zidan ayon.

Bularni bilganimiz holda, endi suvning o'z tabiati, suvda muallaq turish va harakatlanish qonuniyatlari haqida to'xtab o'tsak. Siz bu kursgacha gidrostatika va gidrodinamika tushunchalarini anglab etgansiz.

Shunday bo'lsa ham, ular xususida qisqacha eslatib o'tishni lozim topdik. Demak gidrostatika suzuvchi tanasining suvdagi muvozanatni ifodalasa, gidrodinamika suzuvchi tanasining suvdagi muvozanatini, harakatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqib, suzuvchining muayyan harakatlari majmuasi natijasida uning suvda oldinga siljib borishiga dinamik suzish deyiladi. Gidrodinamikadan dinamik suzish kelib chiqqanidek, gidrostatikadan statik suzish kelib chiqadi.

Buni quyidagicha izohlash mumkin. Masalan, odam gavdasi xech bir harakatlanmay ham ma'lum vaqt mobaynida suvda qalqib tura oladi, suvda cho'milganlarning barchasi buni yaxshi biladi.

Statik suzish deganda shunday suzish tushuniladi, bunda suvdagi insonning harakatsiz tanasiga ikkita kuch ta'sir etib turadi: pastga tortuvchi ogirlik kuchi va suvning itaruvchi kuchi.




Agar ogirlik kuchi suvning itaruvchi kuchidan ko'p bo'lsa, bu holda tana suvga cho'kadi. Agar ogirlik kuchi suvning itaruvchi kuchiga teng bo'lsa, bu holda tana muvozanat holatida (suv yuzida) bo'ladi.

Agar tananing ogirlik kuchi suvning itaruvchi kuchidan kam bo'lsa, bu holda tana suv yuziga qalqib chiqadi.

Tananing suzuvchanligi deganda — suv yuzida tanani ushlab turish qobiliyati tushuniladi. Insonda ikki xil: vertikal va gorizontal suzuvchanlik mavjud.

Gorizontal suzuvchanlik suzish texnikasiga ijobiy ta'sir etadi. Suzuvchanlik inson tanasining o'rtacha zichligi bilan belgilanadi.

Muvozanat holati deganda — tananyng tinch holatda tura olish qobiliyati tushuniladi. Tananing holatiga qarab, gorizontal muvozanat va vertikal muvozanat mavjud. Vertikal muvozanat tananing ogirlik kuchi va suvning itaruvchi kuchlari kattaliklarini munosabatiga bogliq. Gorizontal muvozanat esa bu kuchlarning o'zaro munosabati va ularning o'zaro joylashishiga bogliq bo'ladi.



Dinamik suzish deganda — suzuvchining ketma — ket harakatlari tushuniladi va bunda tanaga to'rtta kuch ta'sir etadi: ogirlik kuchi, ko'taruvchi kuch, siljuvchi kuch, ro'paradan bo'lgan qarshilik kuchi. Bunda ogirlik kuchi o'zgarmas, qolgan uchta kuch esa turli sabab va sharoitlarga qarab o'zgaruvchandir.

Muhokama uchun savollar:

1. Hidrostatika va gidrodinamika tushunchalariga ta'rif bering.
2. Statik suzishda suzuvchi tanasiga necha xil kuch ta'sir etadi?
3. Dinamik suzish deganda nimani tushunasiz va dinamik suzishda tanaga ta'sir etuvchi kuchlar haqida so'zlab bering?

Mavzu buyicha mustaqil ish topshiriqlari.

Tangirov Y., Levitskiy A.N larning Suzish darsligidan ushbu mavzuni mustaqil tarzda o'rganish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. D.B.Narziqulov., R.A.Qosimova. «Suzish va uni o'qitish metodikasi». Lektsiyalar kursi. Samarqand —2003. 30 — 40 b.
2. B.N.Nikitskiy. Plavanie. M.Pros. -1981 g. 65-98 b.
3. O.A.Sobirova.Suzish. — Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 1993. 38-47 b.
4. Y.Tangirov, A.N.Levitskiy. Suzish. — Toshkent: «Meditsina» nashriyoti, 1986 y. 18 — 40 b.

5-MAVZU: “SUZISH FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI”

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Suzish fanining maqsad va vazifalari”. mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.

t/p	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: Talabalarga suzish fanining maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot berish. Sportcha suzish usullari texnikasi xamda musobaka koidalari xakida ma’lumotlar berish 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1.. Xukumatimiz tomonidan mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga bo’lgan e’tibor haqida so’zlab bera oladi Suzish fanining maqsad va vazifalari hamda suzish fanining turlari haqida ma’lumotga ega bo’ladi. 1.2.2 Suzish turlarini sanab, Har bir suzish turlarining maqsadlarini so’zlab bera oladi 1.2.3. Suzishga urgatishda xarakatlar ketma-ketligi xakidama’lumotga ega buladilar . 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Krol usuli, chalqancha krol usuli, brass usuli, batterflyay usuli, gavda va bosh holati, qo’l va oyoq harakati, nafas olish texnikasi, qo’l va oyoqlar koordinatsiyasi, tumbochkadan start olish, suvdan start olish, burilishlar. Bolalarda suzishga qiziqish uygotish yo’llari, aktivlik, umumiy tayyorgarlik, o’zini va kollektivni xurmat qilishlik harakterini tarbiyalash, suzish mashg’ulotlarini tashkil qilish, rejalashtirishni boshlash, baholash usuli, axloqiy, ma’naviy, irodali hissiyotlarni tarbiyalashda tutgan o’rni. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma’ruza matni, o’quv-uslubiy majmua, o’quv qo’llanma, rasmlar, videoproektor	O’qituvchi
2	O’quv mashg’ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e’lon qilinadi. 2.2. Ma’ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi.	O’qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshtiladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to’g’riligi tekshiriladi.	O’qituvchi- Talaba, 40 minut
4	Mustaxkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma’lumotlarni talabalar tamonidan qanday o’zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Suzish fanining maqsad va vazifalari haqida so’zlab bering - «Ko’krakda krol» usuli texnikasini gapirib bering. - «chalqancha krol» usuli texnikasini tushuntirib bering. - «Baterflyay» (delfin) usuli texnikasini tushuntiring.	O’qituvchi 15 minut

	-. «Brass» usuli texnikasi haqida soʻzlab bering. -. Oʻrgatishdagi harakatlar ketma — ketligini izohlab bering. 4.2. Eng faol talabalar (baxolash mezonida) baholanadi	
5	Oʻquv mashgʻulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Oʻqituvchi oʻz faoliyatini tahlil qiladi va tegishli oʻzgartirishlar kiritadi.	Oʻqituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. Suzish fani orqali yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash.
2. Suzish turlarining maqsad va vazifalari.
3. Sportcha suzish turlariga tavsif.
4. Sportcha suzish usullari texnikasi.
5. Start olish texnikasi.
6. Burilishlar texnikasi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Krol usuli, chalqancha krol usuli, brass usuli, butterflyay usuli, gavda va bosh holati, qoʻl va oyoq harakati, nafas olish texnikasi, qoʻl va oyoqlar koordinatsiyasi, tumbokadan start olish, suvdan start olish, burilishlar.

Bolalarda suzishga qiziqish uygotish yoʻllari, aktivlik, umumiy tayyorgarlik, oʻzini va kollektivni xurmat qilishlik harakterini tarbiyalash, suzish mashgʻulotlarini tashkil qilish, rejalashtirishni boshlash, baholash usuli, axloqiy, maʼnaviy, irodali hissiyotlarni tarbiyalashda tutgan oʻrni.

Mavzuga oid muammolar:

1. Suzish bilan shugullanish jismoniy mashqlarning eng foydali turlaridan hisoblanadi. Suzish sporti inson organizmiga ijobiy taʼsirni qanday dalillar bilan izohlay olasiz?
2. Oʻzbekiston jismoniy tarbiya tizimida suzish sportining tutgan oʻrni haqida maʼlumot bering.
3. Har bir sportcha suzish usuli oʻziga xos va harakterli texnik elementlarga ega. Harakatlar samaradorligini oshirishda ushbu elementlarning mohiyatini izohlab bering.
4. Sportcha suzish usullari bir — biridan qoʻl va oyoq harakatlarining harakteri bilan farqlanadi. Sportcha suzish usullarining bir —biridan farqi va musobaqa qoidolari haqida maʼlumot bering.

Birinchi savol boʻyicha dars maqsadi: Talabalarga suzish fanining maqsadi va vazifalari haqida maʼlumot berish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

1. Xukumatimiz tomonidan mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga boʻlgan eʼtibor haqida soʻzlab bera oladi.
2. Suzish fanining maqsad va vazifalari hamda suzish fanining turlari haqida maʼlumotga ega boʻladi.
3. Suzish fanining ommaviyligini oshirish uchun nimalarga eʼtibor berish kerakligi haqidagi fikrlarni soʻzlab bera oladi.

Birinchi asosiy savol bayoni:

Jumhuriyatimizda jamiyatning barcha soxalarini yangilash, rivojlantirish, ildamlantirish jarayoniga faol kirishilmoqda. Bu yo'lda jismoniy tarbiya va sport ilmiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Bejiz emaski, xukumakimizning qarorlarida, ya'ni jismoniy tarbiya va sport tugrisida 1992 yil 14 yanvar, ta'lim to'grisida 1992 yil 2 iyul va 1997 yil 29 avgust qonunlari, Prezidentimizning «Soglom avlod uchun» jamgarmasini tashkil etish to'grisidagi farmoni jismoniy tarbiya va sportni axolining keng qatlamlari o'rtasida yanada keng yoyish umumdavlat ishi, barcha xo'jalik va jamoat tashkilotlari, mexnat jamoalarining burchi ekanligi ta'kidlandi.

Kishilarda soglom turmush tarzini shakllantiruvchi yangidan — yangi aniq vazifalar belgilab berilgan. Hozirda, ayniqsa, bolalarning go'daklikdan boshlab, yalpisiga va mustaqil jismoniy mashg'ulotlarga keng jalb qilish, chiniqtirish, xususan, soglom, baquvvat, chidamli, chaqqon bo'lib o'sishlariga jiddiy e'tibor berish juda zarur. Suzish bilan shugullanish jismoniy mashqlarning eng foydali turlaridan biri hisoblanadi, Shu erda xurmatli Prezidentimizning bir nechta so'zlarini aytib o'tmasak bo'lmaydi. «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart», «Farzandlari soglom yurt qudratli bo'lur», «Xech narsa mamlakatni sportchalik uning shon — shuxratini dunyoga tanita olmaydi» deganlar.

Muhokama uchun savollar:

1. «Jismoniy tarbiya va sport tugrisida»gi qonun qachon qabul qilingan va bu qonunni qabul qilishdan maqsad nima?
2. Suzish fanining maqsad va vazifalari haqida so'zlab bering.
3. Prezidentimiz I.A.Karimovning «Farzandlari soglom yurt qudratli bo'lur», «Xech narsa mamlakatni sportchalik uning shon— shuxratini dunyoga tanita olmaydi» degan so'zlari zamidida nimalarni tushunasiz.?

Ikkinchi savol buyicha dars maqsadi: Talabalarga suzish turlari va ularning maqsad va vazifalari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Suzish turlarini sanab bera oladi.
2. Har bir suzish turlarining maqsadlarini so'zlab bera oladi.
3. Suzish turlari va ularning vazifalari haqida gapirib beradi.


Ikkinchi asosiy savol bayoni:

Suzish texnikasi maqsadga yo'naltirilganlikka mos tushishi kerak, bu maqsad suzish turlari klassifikatsiyasi bilan belgilanadi.

Sportcha suzishda sportchining asosiy maqsadi ma'lum bir masofani tanlangan usulda rejalashtirilgan vaqtda bosib o'tishdir. Bu natijani ko'rsatish uchun sportchi va murabbiy ikki asosiy vazifani xal etishlari lozim: suzish tezligini absalyut darajada oshirish; zarur tezkorlik — chidamlilik qobiliyatini oshirish.

Tanlangan suzish usuli texnikasini ishlab chiqishda turli harakat tuzilishlarini tadqiq qilish kerakki, va shundayini tanlash kerakki, bu harakatlar sportchining nafaqat absalyut tezligini oshirishini, shu bilan birga butun masofa davomida yuqori bir maromli tezlikni ta'minlasin.

Suzish turlari



Amaliy suzishda sportchi oldiga suzish usullari, turlaridan kelib chiqqan holda turli xil maqsad va vazifalar quyiladi. Cho'quvchilarni qutqarishda asosiy maqsad cho'kayotgan kishini o'z vaqtida qutqarish. Bunday maqsadga tez suza oladigan, ilgari yaxshi tayyorgarlik ko'rgan sportchigina erisha oladi. Suvga sho'ngishdan asosiy maqsad suv ostida ma'lum masofaga suzish va sho'ngishdir.

Suvdagi o'yinlardan maqsad esa suvdagi o'yinlar vaqtida suzish texnikasidan to'g'ri foydalanishdir.

Badiiy suzishning asosiy maqsadi suzuvchi tomonidan suvda akrobatik elementlari mavjud bo'lgan gimnastik mashqlarni bajara olish malakasi hisoblanadi.

Agar, suzuvchi sportcha suzish usullari texnikasini mukammal egallagan bo'lsa, u suzish klassifikatsiyasi tomonidan talab etilgan har qanday vazifalarni bajara oladi.

Suzish taktikasi doimo suzishning konkret sharoitlariga javob berishi lozim.

Maqsadga yo'naltirilganlik singari, bu suzish sharoitlari ham suzish turlari klassifikatsiyasiga qarab o'zgaradi. Sportcha suzishda suzish texnikasini belgilab beruvchi sharoit bu musobaqa qoidalarini hisoblanadi. Bu qoidalar masofa uzunligini, suzish usulini, start olish va burilish qoidalarini, masofani suzib o'tish, finish qoidalarini belgilab beradi. Amaliy suzishda bu sharoitlar turlicha bo'lib tez — tez o'zgarib turadi. Cho'quvchini qutqarishda qutqaruvchi kiyim bilan suvga tushishi va sharoitga qarab suzish usulini o'zgartirishi mumkin.

Uzunlikka sho'ngishda, agar suzuvchi loyqa suvda bo'lsa, u shunday texnika variantini tanlash lozimki, bu texnika suzuvchiga suv ostida yaxshi orientir olish imkonini berishi zarur.

Suzishning o'yin turlarida sharoitlar boshqa suzish turlariga nisbatan tez o'zgarib turadi.

Muhokama uchun savollar:

1. Suzish turlari klassifikatsiyalariga tavsif bering.
2. Suzishning asosiy vazifalarini ochib bering.
3. Suzish mashg'ulotlarining asosiy maqsadlari nima?
4. Suzish texnikasi sharoitlari farqi nimada?

Uchinchi savol buyicha dars maqsadi: Talabalarga sportcha suzish usullari va ularni egallashda harakatlar ketma — ketligini tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Sportcha suzish usullari va ularning texnikasi haqida so'zlab beradi.
2. Sportcha suzish usullari masofalarini sanab beradi.
3. Suzishga o'rgatishdagi harakatlar ketma — ketligini sanab beradi.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:

Yuqorida aytib o'tilganidan ma'lum bo'ladiki, har qanday suzish sportidagi suzish texnikasi ma'lum qoidaga asoslangan harakat va holatlar majmuasidan iborat ekan. Bu harakat va holatlar asosan beshta bo'lib ular:

1. Gavda holati.
2. Oyoqlar harakati.
3. Qo'llar harakati.
4. Nafas.

5. Harakatlarning umumiy uygunlashuvidan iborat. Har qanday sportdagi suzish usullaridan kelib chiqib butun suzish usullarini ikki guruxga bo'lish mumkin.

1. Qo'l va oyoqlarining navbatma —navbat harakatlantirib suzish;

- a) ko'krakda krol usulida suzish;
- b) chalqancha krol usulida suzish kiradi.

2. Qo'l va oyoqlarni bir vaqtda harakatlantirib suzish.

- a) brass usulida suzish;

b) batgerfley usulida suzish (buni delfincha suzish ham deyiladi) kiradi. Yonboshlab suzish sportida o'z ahamiyatini yuqotgan. U ba'zi o'yinlarda va maxsus talab qo'yilgan paytlarda qo'llaniladi, xolos.

Endi bularga aloxida to'xtalib o'tamiz. Ko'krakda krol usuliga suzish tarixi.

Xaqiqiy sportcha suzish taxminan XIX asr oxirlaridan boshlab yuzaga kelgan. Ungacha suzish uzoq tarixni bosib o'tgan bo'lsa ham xalqaro musobaqa shartlari asosida, muayyan usullarda sportcha suzish texnikasi takomillashmagan edi. U paytlarda tredjent usuli (qisqa masofa) va brass usuli (uzoq masofada ommalashgan bo'lib) qo'llanilardi. Tredjent usulida suzuvchi qo'llari bilan navbatma— navbat harakatlar qilgan — xuddi krol usulidek. Ammo oyoqlari bilan qaychisimon harakatlar qilgan. Nafas olish ixtiyoriy bo'lgan. Ammo asrimizning boshlaridan boshlab o'sha zamonlarda keng tarqalgan bu usul o'rmini ko'krakda krol' usulida suzish egallay boshladi.

1904 yilgi Sent —Luis (AQSh) dagi 3 Olimpiyada. Z.Xolmant (Vengriya) 50 va 100 yard masofalarga suzib oltin medalni qo'lga kiritgan. Shundan keyin bu usul yanada ommalasha bordi. Bir — biriga o'xshash har xil ko'rinishlar paydo bo'ldi. Masalan, keyingi olimpiada o'yinida avstraliyalik suzuvchilar ko'krakda krol' usulida suzishning yangi turi bilan qatnashdilar va ko'pchilik sportchilar diqqatini o'ziga tortdilar.

Chunonchi, ular suvda boshlarini baland tutgan holda qo'llarini tirsakdan bukib qisqa — qisqa eshish harakatlarini bajarar, oyoqlarini tizzadan bukib, panjalari suvga qattiq deysinib olga siljir edilar. Chap oyoq bilan deysinganda chap qo'l xavoga chiqar edi. Bu harakatlarni ular musobaqaning oxiriga qadar buzmagani. Avstraliyalik sportchilar varianti sportchilarga, trenerlarga va tomoshabinlarga juda ma'kul tushdi. Butun Evropa va Amerika mamlakatlarining sportchilari orasida «Avstraliyaliklar varianti» degan nom mashxur bo'lib ketgan. Ammo ko'krakda krol' usulda suzish xali o'z takomiliga etmagan edi, izlanish davom etaverdi, Nixoyat, 1992 yil Stofyumingi variantiga asos solindi. Uning asoschilari gavayalik Dik Kaxanamoku bilan amerikalik Jo Veysmyuller bo'ldilar. Shundan keyin «Amerikaliklar varianti» degan yangi, ko'p jixatdan hozirgi krol usulida suzish varianti paydo bo'ldi.

Shunday qilib, krol suzishning zamonaviy usuliga aylandi, Bu eng tezkor usul bo'lib, odatda suzuvchining gavdasi gorizontol holatga eng yaqin keltiriladi. Qo'llar navbati bilan bosh tepasida suvdan chiqarib oldinga tashlanadi va eshiladi, yuz peshonaga qadar suvga botib turadi, nafasni yonga qaragan paytda olinadi va suvga cho'kadilar. Bunda sportchining oldga siljitib boruvchi kuchi asosan qo'lida bo'ladi, qo'llar harakatini batafsilroq tasvirlaydigan bo'lsak, bu quyidagicha

bo'ladi; o'ng qo'l, o'ng elka ro'parasidan suvga botirilishi va shu paytda tirsakdan xiyol bukiladi, oldin barmoq yozib (kerib emas), panjani keyin bilak va nixoyat, elka suvga botiriladi. Suv tagida qo'l oldinga uzatiladi va pastga qarab eshish, yarmisiga kelganda esa qo'l harakatini tezlashtirish kerak. Qo'l bilan suvni oldinga tortayotganda, harakatning yarmisiga kelganda qo'l tirsakdan buqilishi va biqin yonidan to songacha suvni zo'r berib tortish davom ettirdilar.

Eshish harakatlarini bajarayotganda barmoqlar birlashtirilib, suvni iloji boricha ko'proq olish uchun yuzada xovuz hosil qilinadi. Shunday qilganda, suv qo'llar uchun tayanch vositasini o'taydi, va odam gavdasini tezroq ilgariga suradi.

Shuni unutmaslik kerakki, suvdan birinchi bo'lib tirsak, oxirida panja chiqadi.

Panja tos yonidan yoki sal pastroqdan son yonidan chiqib kelishi kerak, keyin tirsakdan qo'lni erkingina bukib oldinga quloch tashlanadi. Xuddi shu paytda qo'lni erkin tutish kerakki bu mushaklar picha dam olishga ulgursin. Qo'l suvga kirgach, xuddi suvni xovuch bilan tutganda panjani pastga qaratib suvni tortish eshish lozim.

Eshayotgan qo'l vertikal holatga keltirilganda ikkinchi qo'lni suvga botirib ulgurishi ucho'n tezroq quloch ochish kerak.

Shunda ikkala qo'l navbati bilan suvni eshib boradi va sportchi oldinga qarab ildam harakat qiladi,

Sportchining yuzi bu usulda hamisha suv ichida bo'ladi. Nafas faqat boshni yonga burganda olinadi va nafasni ogiz burun orqali suvda, oxirini esa yonga xavoga chiqariladi. Shuni unutmangki, nafas olishni bosh qayoqqa burilgan bo'lsa shu tomonga qo'l tirsagi vertikal holatga kelgan vaqtga to'g'rilash kerak. Shunda qo'l vertikal holatdan o'tishi bilan suzuvchi boshini buradi. Krol usulida suzilganda odatda qo'l bilan 2 marta eshish, oyoqni esa 6 marta harakatlantirish kerak. Mana shu bir tsikl deyiladi. Har bir tsiklga bir marta nafas olib chiqariladi. Nafas chiqarilishi, nafas olishga qaraganda cho'zilishi, nafas olish bilan nafas chiqarish o'rtasida uzulish bo'lmasligi kerak.

Muhokama uchun savollar:

1. Sportcha suzish usullarini sanab bering.
2. Barcha sportcha suzish usullaridagi musobaqa masofalarini aytib bering.
3. Sportcha suzishga o'rgatishda harakatlarning qanday ketma — ketligiga amal qilinadi ?

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

5 — topshiriq. Sportcha suzish bo'yicha musobaqalar nizomini tuzib kelish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. D.B.Narziqulov., R.A.Qosimova. «Suzish va uni o'qitish metodikasi». Lektsiyalar kursi. Samarqand —2003. 41—46 b.
2. B.N.Nikitskiy. Plavanie. M.Prost. -1981 g. 167-178 b.
3. O.A.Sobirova.Suzish. Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 1993. 78-82 b.
4. Y.Tangirov, A.N.Levitskiy. Suzish.—Toshkent: «Meditsina» nashriyoti, 1986 y. 142-149 b.

6-MAVZU: “SPORTCHA SUZISH TEXNIKASI ASOSLARI”

Fanni o’qitish texnologiyasi:
“Sportcha suzish texnikasi asoslari”. mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.

T/p	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: Talabalarga suzish fanining maqsadi va vaziflari haqida ma’lumot berish. Sportcha suzish usullari texnikasi xamda musobaka koidalari xakida ma’lumotlar berish 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1.. Xukumatimiz tomonidan mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga bo’lgan e’tibor haqida so’zlab bera oladi Suzish fanining maqsad va vazifalari hamda suzish fanining turlari haqida ma’lumotga ega bo’ladi. 1.2.2 Suzish turlarini sanab, Har bir suzish turlarining maqsadlarini so’zlab bera oladi 1.2.3. Suzishga urgatishda xarakatlar ketma-ketligi xakidama’lumotga ega buladilar 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Krol usuli, chalqancha krol usuli, brass usuli, batterflyay usuli, gavda va bosh holati, qo’l va oyoq harakati, nafas olish texnikasi, qo’l va oyoqlar koordinatsiyasi, tumbokhadan start olish, suvdan start olish, burilishlar. Bolalarda suzishga qiziqish uygotish yo’llari, aktivlik, umumiy tayyorgarlik, o’zini va kollektivni xurmat qilishlik harakterini tarbiyalash, suzish mashgulotlarini tashkil qilish, rejalashtirishni boshlash, baholash usuli, axloqiy, ma’naviy, irodali hissiyotlarni tarbiyalashda tutgan o’rni. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma’ruza matni, o’quv-uslubiy majmua, o’quv qo’llanma, rasmlar, videoproektor	O’qituvchi
2	O’quv mashg’ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e’lon qilinadi. 2.2. Ma’ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi.	O’qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to’g’riligi tekshiriladi.	O’qituvchi- Talaba, 40 minut
4	Mustaxkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma’lumotlarni talabalar tamonidan qanday o’zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Suzish fanining maqsad va vazifalari haqida so’zlab bering -. «Ko’krakda krol» usuli texnikasini gapirib bering. -. «chalqancha krol» usuli texnikasini tushuntirib bering. -. «Baterflyay» (delfin) usuli texnikasini tushuntiring. -. «Brass» usuli texnikasi haqida so’zlab bering.	O’qituvchi 15 minut

	- O'rgatishdagi harakatlar ketma — ketligini izohlab bering. 4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonini asosida) baholanadi	
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	O'qituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. Sportcha suzish turlari va texnikasiga tavsif
2. Start olish texnikasi
3. Burilishlar texnikasi

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Krol usuli, chalqancha krol usuli, brass usuli, batterflyay usuli, gavda va bosh holati, qo'l va oyoq harakati, nafas olish texnikasi, qo'l va oyoqlar koordinatsiyasi, tumbochkadan start olish, suvdan start olish, burilishlar.

Bolalarda suzishga qiziqish uygotish yo'llari, aktivlik, umumiy tayyorgarlik, o'zini va kollektivni xurmat qilishlik harakterini tarbiyalash, suzish mashg'ulotlarini tashkil qilish, rejalashtirishni boshlash, baholash usuli, axloqiy, ma'naviy, irodali hissiyotlarni tarbiyalashda tutgan o'rni.

Mavzuga oid muammolar:

1. 3. Har bir sportcha suzish usuli o'ziga xos va harakterli texnik elementlarga ega. Harakatlar samaradorligini oshirishda ushbu elementlarning mohiyatini izohlab bering.
- 2 Sportcha suzish usullari bir — biridan qo'l va oyoq harakatlarning harakteri bilan farqlanadi. Sportcha suzish usullarining bir —biridan farqi va musobaqa qoidalari haqida ma'lumot bering.

Birinchi asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarda sportcha suzish usullari va ularning texnikasi haqida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Ko'krakda krol va chalqancha krol usuli texnikasini gapirib beradi.
2. Brass usuli va batterflyay usuli texnikasini yoritib beradi.
3. Sportcha suzish usullarida qo'llaniladigan masofalarni sanab bera oladi.
4. Suzish texnikasiga o'rgatishda harakatlar ketma — ketligini izohlab beradi.


Birinchi asosiy savolning bayoni:

Ko'krakda krol' usuli: bu usul qo'l va oyoqlarning navbatma — navbat simmetrik harakatlari bilan harakterlanadi. Bu usul eng ommaviy va eng tezkor usul hisoblanadi. Ko'krakda krol usuli bilan quyidagi masofalar bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. 100 — 200 - 400 - 800 - 1500 metr, hamda 4 x 100 mG' 4 x 200 m estafetalar bo'yicha. Hozirgi vaqtda krol usulida suzishning 3 ta varianti qo'llaniladi:

1 — variantda har bir tsikl qo'l va oyoqlarning navbatma — navbat ikki harakatidan va bitta nafas olish va nafas chiqarishdan iborat bo'ladi.


2-3 — variantda qo'l va nafas harakatlari saqlanadi, oyoq harakatlari 4 va 6 martaga ko'payadi. Bu variantlar to'rt zarbali va olti zarbali krol usuli deb ataladi.

Gavda holati. Suzuvchining gavda holati suv yuzida gorizontol holatda bo'ladi. Bosh suvda, yuz suvga qaragan




Oyoqlar harakati. oyoqlar uzluksiz ravishda yuqoridan — pastga, pastdan — yuqoriga yo'naltirilgan harakatlarni katta amplituda bajarishi lozim. oyoqlar harakati gavdani gorizontol holatda ushlashga va tezlikni oshirishga yordam beradi. oyoqlarning pastga qarab qilingan harakati «ishchi» yoki «eshuvchi» harakat deb, (bu harakatlar gavdani oldinga siljishiga yordam beradi), yuqoriga harakati esa tayyorgarlik harakati deyiladi.

Qo'llar harakati. Ko'krakda krol' usulida gavdaning oldinga siljishi asosan qo'llar harakati (panja, boldir) orqali bo'ladi, har bir qo'lning harakat tsikli quyidagi fazalardan iborat; qo'llarning suvga kirishi, ushlash, eshishning asosiy qismi, qo'lning suvdan chiqishi, qo'llarni xavoda oldinga olib o'tish.



Ko'krak krol' usulidagi harakatlarning umumiy koordinatsiyasi, yuqori, bir maromdagi tezlik qo'l va oyoqlarni uzluksiz ravishdagi ishchi harakatlari va ularning nafas bilan mutanosibligi hisobiga amalga oshiriladi.



Chalqancha krol' usuli. chalqancha krol usuli qo'l va oyoqlarning navbatma — navbat uzluksiz harakatlari bilan harakterlanadi. Boshqa usullardan bu usulning asosiy farqi shundaki, bu usulda gavda yuqoriga qaragan va nafas erkin bo'ladi. tezlik bo'yicha bu usul ko'krakda krol usuli va batterflyaydan so'ng uchinchi o'rinda turadi. Bu usul 100 m — 200 m masofalarda, shuningdek, 200 — 400 m kompleks suzishda (ikkinchi bo'lak 50—100 m), va 4 x 100 m kombinatsiyalashtirilgan estafetada birinchi etapda qo'llaniladi.

Oyoqlar harakati. Bu usulda ham krol usulidagi singari oyoqlar uzluksiz ravishdagi yuqoridan — pastga, pastdan — yuqoriga yo'naltirilgan harakatlardan iborat. Bunda ham oyoqlar harakati gavdani gorizontol holatini ushlashga, gavdani tezligini ushlab turishga yordamlashadi.


Qo'llar harakati. Bu usulda ham, qo'llar harakati krol usulidagi singari gavdani oldinga siljishini ta'minlaydi. Bir qo'lning harakat tsikli quyidagi fazalardan iborat: qo'lni suvga botishi, ushlash, asosiy eshish, qo'lni suvdan chiqishi, qo'lni xavoda oldinga olib o'tish.



Nafas. Bu usulda suzganda nafas olish va chiqarish erkin, suv yuzida amalga oshiriladi. Shuni esda tutish kerakki, bu usulda suzganda nafas uzluksiz va bir maromli bo'lishi kerak. Nafas olish, qo'llarni xavoda oldinga olib o'tish vaqtida, ogizni katga ochgan holda amalga oshirilsa, nafas chiqarish esa, eshish va qo'lni suvdan chiqarish vaqtida amalga oshiriladi.

Delfin. Bu usul qo'l va oyoqlarning bir vaqtdagi simmetrik harakatlari bilan, shuningdek, qo'l harakatlariga yordam beruvchi va oyoq harakatlarini kuchaytiruvchi gavdaning to'lqinsimon harakati bilan harakterlanadi. Del'fin usulining aloxida elementlari (oyoq va qo'l harakatlari) ko'krakda krol usuli texnikasidan kam farq qiladi. Tezlik jixatdan bu usul ko'krakda krol usulidan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Bu usulda 100 — 200 m masofalarga musobaqalar o'tkaziladi. 200—400 m kompleks suzishda 4 x 100 m kombinatsiyalashtirilgan estafetada (uchinchi etapda) qo'llaniladi.

Delfin usulda suzishda harakatlar mutanosibligining bir necha variantlari bor (bir zarbali, ikki zarbali, uch zarbali). Bular ichida eng ommalashgani ikki zarbali variantdir. Bu variantda har bir tsikl bitga qo'llar harakatidan, ikkita oyoqlar zarbasidan, bitta nafas olish va bitga nafas chiqarishdan iborat.



Gavda va oyoq harakatlari. Bu usulda oyoqlar uzluksiz ravishda baravariga yuqoridan — pastga, pastga — yuqoriga yo'naltirilgan simmetrik harakatlarni bajaradi, Bu harakatlarda gavda ham aktiv ishtirok etib, qo'llarni oldinga xavoda olib o'tishga va nafas olishga yordam beradi.

Qo'llar harakati. Del'fin usulida gavdaning oldinga siljishini asosan qo'llar harakati ta'minlaydi. Bu usulda qo'llar harakati tsikli quyidagi fazalardan iborat: qo'llarning suvga botishi, ushlash, asosiy eshish, qo'llarni suvdan chiqarish, qo'llarni xavoda oldinga olib o'tish.


Nafas. qo'l bilan eshish fazasining oxirida gavdaning elka qismi eng yuqori holatda bo'ladi, bu vaqtda bosh suvdan ko'tarilib, nafas olish boshlanadi. qo'l suvdan chiqqan paytda esa nafas olish

tugatiladi. Shundan so'ng bosh suvga kirib, nafas olish to'xtatiladi. Delfin usulida harakatlarning eng samarali mutanosibligi ikki zarbali suzishda kuzatiladi.

Brass. Bu usul qo'l va oyoq harakatlarining bir vaqtdagi simmetrik harakatlari bilan karakterlanadi. Delfin usulidan farqli o'laroq, bu usulda qo'l harakati tsikli suv ichida bajariladi. Tezlik jihatdan bu usul sportcha usullar ichida oxirgi o'rinda turadi. Ammo, u uzoq masofalarni suzib o'tish, suv osti muxitini yaxshi kuzatish va shovqin chiqarmasdan suzish imkonini berishi jihatidan amaliy suzishda katta ahamiyatga ega. Bu usulda quyidagi masofalar bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. 100 — 200 m, 200 — 400 m kompleks suzishda, 4 x 100 m kombinatsiyalashtirilgan estafetalarda (2 chi etap).

Oyoqlar harakati. Bu usulda oyoqlar tayyorgarlik harakatlarini (tortilish), ishchi harakatlarini (itarilish) va sirpanish(kichik pauza) harakatlarini bajaradi.

Qo'llar harakati. bu usulda suzishda qo'llar harakati katta ahamiyatga ega. qo'l harakati tsikli ishchi (ushlash va asosiy eshish) va tayyorgarlik (qo'llarni dastlabki holatga qaytishi) harakatlaridan iborat.



Nafas. Nafas olish uchun suzuvchi boshni shunday ko'tarish kerakki, bunda ogiz suvdan yuqori bo'lsin. Boshning bunday holatda bo'lishi elka qismi holatiga bogliq bo'ladi. Elka qismining eng yuqori holati qo'l bilan eshish harakatlarining oxirida kuzatiladi. Aynan shu paytda nafas olinadi. Shundan so'ng yuz suvga quyiladi va bir ozgina pauzadan so'ng ogiz va burun orqali nafas suvga chiqariladi.

Muhokama uchun savollar:

1. «Ko'krakda krol» usuli texnikasini gapirib bering.
2. «chalqancha krol» usuli texnikasini tushuntirib bering.
3. «Baterflyay» (delfin) usuli texnikasini tushuntiring.
4. «Brass» usuli texnikasi haqida so'zlab bering.
5. O'rgatishdagi harakatlar ketma — ketligini izohlab bering.

Ikkinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga start olishlar texnikasini yoritib beradi..

Identiv o'quv maqsadlari:


1. Start olishlar texnikasi va ularning suzishdagi ahamiyatini so'zlab beradi.
2. Suzishda qo'llaniladigan start turlarini sanab beradi.
3. Supachadan start olish texnikasini tushuntiradi.
4. Suvdan start olish texnikasi haqida so'zlaydi,

Ikkinchi asosiy savolning bayoni:

Sportcha suzishda startlar muhim ahamiyatga ega. O'z vaqtida va a'lo darajada bajariladigan start suzuvchiga yuqori tezlik bilan suzish va yaxshi natijalar ko'rsatish imkonini beradi. «Ko'krakda krol», «baterflyay» va «brass» usullarida start supachadan «chalqancha krol» usulida

esa start suvdan olinadi. Supachadan start olish quyidagi ketma — ketlikda bajariladi: xushtak chalinishi yoki «joylarni egallang» komandasidan so'ng sportchi start olish uchun harakatsiz, dastlabki holatni egallaydi, sport to'pponchasi otilishi bilan yoki «marsh» komandasidan so'ng supachadan start olinadi. Suvdan start olishda esa xushtak chalingandan yoki «suvga tushilsin» komandasidan so'ng suzuvchi suvga tushadi, ikkinchi xushtak chalinishi yoki «startga» komandasidan so'ng sportchi dastlabki holatni egallaydi va uchinchi komandadan so'ng suvdan start olinadi.

Supachadan va suvdan start olishlarni quyidagi elementlarga bo'lish mumkin: dastlabki holat, tayyorgarlik harakatlari, itarilish, uchish, suvga kirish, sirpanish, dastlabki suzish harakatlari va suv yuziga chiqish.



Ushlab start olish. Dastlabki holatda — suzuvchi pastga egilib, qo'l barmoqlari bilan supachaning oldingi qismini ushlaydi. Tananing egilishi $20 — 40^{\circ}$ tashkil etadi. Starterlarning komandasidan so'ng sportchi oyoqlarni tizza qismida bukadi va qo'llar bilan birgalikda supachadan itariladi. Uchish burchagi va suvga kirish burchagi $10—15^{\circ}$ ni tashkil etadi. Bu variantda tayyorgarlik harakatlari va itarilish tezroq bajariladi. Biroq, uchish masofasi va sirpanish oddiy startlarga nisbatan kamroq bo'ladi.

Suvdan start olish: starterning birinchi komandasidan so'ng sportchi suvga tushib start olish joyiga keladi, basseyn devoriga yuz bilan turib dastlabki holatni egallaydi, ya'ni qo'llari bilan start olish ruchkasini ushlab oyoqlarni basseyn devoriga qattiq tirab turadi. Ikkinchi («startga») komandadan so'ng sportchi qo'llarini tirsak bo'g'imidan bukib, basseyn devoriga tortiladi, boshni oldinga — yuqoriga yo'naltiradi va nafas oladi. Shu bilan birga oyoqlar bilan qattiq itarilib, uchish fazasini bajaradi. Uchishdan so'ng suzuvchining dastlab oyoq va qo'llari, boshi va butun tanasi suv ostiga kiradi. Sirpanish tezligi masofa tezligiga teng yoki undan sal yuqoriroq bo'lgan vaqtdagina dastlabki suzish harakatlari boshlanadi. Bu vaqtda suzuvchi oyoqlar bilan juda tez harakat qilib, bitta qo'l bilan eshish harakatini amalga oshiradn. Eshish oxirida gavda suv yuziga chiqishi kerak.



Muhokama uchun savollar:

1. Startlar ahamiyatini so'zlab bering.
2. Sportcha suzishda qo'llaniladigan startlar turlari va ularning farqini so'zlab bering.
3. Supachadan start olish texnikasini tushuntiring.
4. Suvdan start olish texnikasini so'zlab bering.


Uchinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Shugullanuvchilarni burilishlar texnikasi bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Burilishlar turlari va ular ahamiyati haqida so'zlab beradi.
2. Sportcha suzishda qo'llaniladigan burilishlar turlarini sanab beradi.
3. Ochiq burilishlar va yopiq burilishlarni harakterlab beradi.
4. Tezkor burilish texnikasini tushuntiradi.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:


Suzish bo'yicha barcha musobaqalar standart basseynlarda (25 — 50 m), masofalar uzunligi esa 50 metrdan to 1500 metrgacha bo'lgan uzunliklarda o'tkaziladi. Har bir suzuvchi burilishni bajara olishi kerak, yaxshi bajarilgan burilish esa suzuvchiga masofalar bo'yicha suzishni davom ettirish, burilishgacha bo'lgan suzish ritmi va tempini saqlash, shu bilan birga kuchni kam sarflab, masofani yaxshi natija bilan suzib o'tish imkonini beradi. Burilishlar soni masofa uzunligi bilan belgilanadi. Barcha burilishlar ikki guruxga: ochiq burilishlar va yopiq burilishlarga bo'linadi.



Ochiq burilishlarda suzuvchi basseyn devori oldida aylanayotganda nafas oladi.


Yopiq burilishda esa suzuvchi basseyn devori oldida aylanayotganda nafas olmaydi, bosh suvda bo'ladi. Burilishlar texnikasi shartli ravishda quyidagi elementlarga bo'linadi:

basseyn devoriga suzib kelish; aylanish; itarilish va sirpanish; dastlabki suzish harakatlari va suv yuziga chiqish.



Ochiq burilish — bu burilishni xoxlagan tomonga bajarish mumkin. Bu burilishni bajaraganda basseyn devoriga qo'lni cho'zib suzib kelish va basseyn devoriga tekizish lozim, Suzuvchi aylanish uchun bukilgan qo'li bilan devorga tayanib, o'ng (yoki chap) qo'li bilan eshish harakatlarini bajarib, qo'lini qarama — qarshi tomonga uzatadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida oyoqlar ham bukiladi. Bu vaqtda suzuvchi gavdasi vertikal o'q bo'yicha aylanib tos va tovonlar basseyn devoriga yaqinlashadi. Shundan sung oyoqlar son — boldir va tizza qismlaridan qattiq itarilib, sirpanish 30 — 40 sm suv ostida bajarilishi kerak.

Yopiq burilish. Bunda ham xuddi ochiq burilishdagidek suzuvchi basseyn devoriga suzib kelib, qo'l (oilan tegadi. Shundan so'ng vertikal o'q bo'yicha tana aylanadi. Ochiq burilishdagidan farxush o'laroq bunda bosh suvga kirgan, tana kuchli gruppirovka holatida, tana elka bilan pastga egilgan, bukilgan oyoqlar esa suv yuziga yaqin bo'ladi. Bu burilish ochiq burilishga nisbatan tez bajariladi.



Tezkor burilish. Erkin usul bilan suzishning barcha masofalarida o'tkazilgan musobaqalarda bu burilishdan foydalanishga ruxsat beriladi. (ya'ni qo'llar bilan basseyn devoriga tegmasdan burilishga). Faqatgina bunda burilgandan so'ng tananing biror —bir qismi, albatta, basseyn devoriga tegishi shart. Shu talablar asosida sportcha suzishning erkin (krol') usuli amaliyotiga bu burilish (qo'llar bilan basseyn devoriga tegmasdan) usuli chuqur kirib keldi.

Muhokama uchun savollar:

1. Burilish turlari va ularning ahamiyati nimadan iborat?
2. Sportcha suzishda qo'llaniladigan burilish turlarini sanab bering.
3. Ochiq va yopiq burilishlar texnikasini tavsiflang.
4. Tezkor burilish haqida gapirib bering.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

6 —topshiriq. Sportcha suzish usullaridagi musobaqa Nizomini va sportcha suzish bo'yicha musobaqa masofalarini o'rganib kelish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. D.B.Narziqulov., R.A.Qosimova. «Suzish va uni o'qitish metodikasi». Lektsiyalar kursi. Samarqand —2003. 41—46 b.
2. B.N.Nikitskiy. Plavanie. M.Pros. -1981 g. 107-134 b.
3. O.A.Sobirova. Suzish. Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 1993. 47-576.

7 - MAVZU: “AMALIY SUZISH TEXNIKASI ASOSLARI”

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Amaliy suzish texnikasi asoslari”. mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.

№	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: Amaliy suzish usullari va yonboshlab suzish texnikasiga umumiy tavsif berish, chukayotganlarni kutkari va ularga birinchi tibbiy yordam berish yullari xakida ma’lumotlar berish 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1.. Amaliy suzish ahamiyatini so’zlaydi. 1.2.2 Amaliy suzish turlarini farqlay oladi. 1.2.3. Yonboshlab suzish texnikasini gapirib beradi. 1.2.4. Suvga sho’ngish usullarini sanab beradi. 1.2.5. Suv ostida harakatlanish usullari haqida ma’lumot beradi. 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Uzunlikka va chuqurlikka sho’ngish texnikasi, nafasni uzoq vaqt ushlab turish usullari, suv ostiga sho’ngish usullari, qutqarish jixozlari va ulardan foydalanish texnikasi, cho’kkanlarga birinchi yordam, sun’iy nafas usullari, suv to’siqlaridan oshish, kiyimda suzish, suvga oyoq bilan va bosh bilan sho’ngish. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma’ruza matni, o’quv-uslubiy majmua, o’quv qo’llanma, rasmlar, videoproektor	O’qituvchi
2	O’quv mashg’ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e’lon qilinadi. 2.2. Ma’ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi.	O’qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitaladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to’g’riligi tekshiriladi.	O’qituvchi- Talaba, 40 minut
4	Mustaxkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma’lumotlarni talabalar tamonidan qanday o’zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Amaliy suzish ahamiyatini so’zlab bering. - Amaliy suzish usullari va turlari haqida gapirib bering. - Yonboshlab suzish usuli texnikasini tushuntirib bering. - Suvga sho’ngish usullarini sanab, ular farqini aytib bering. - Suv ostida harakatlanish usullarini aytib bering. 4.2. Eng faol talabalar (baxolash mezonini asosida) baholanadi	O’qituvchi 15 minut
5	O’quv mashg’ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. O’qituvchi o’z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o’zgartirishlar kiritadi.	O’qituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. Yonboshlab suzish texnikasi.
2. Cho'kayotganlarni qutqarish.
3. Suv to'siqlaridan oshish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Uzunlikka va chuqurlikka sho'ngish texnikasi, nafasni uzoq vaqt ushlab turish usullari, suv ostiga sho'ngish usullari, qutqarish jixozlari va ulardan foydalanish texnikasi, cho'kkanlarga birinchi yordam, sun'iy nafas usullari, suv to'siqlaridan oshish, kiyimda suzish, suvga oyoq bilan va bosh bilan sho'ngish.

Mavzuga oid muammolar:

1. Ayni vaqtda amaliy suzish turlari 3 guruxga: sho'ngishlar, cho'kayotganlarni qutqarish va suv to'siqlaridan oshish turlariga bo'linadi. Hozirgi turmush sharoitida amaliy suzishning mohiyatini qanday izohlaysiz?

Birinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Amaliy suzish usullari va yonboshlab suzish texnikasiga umumiy tavsif berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Amaliy suzish ahamiyatini so'zlaydi.
2. Amaliy suzish turlarini farqlay oladi.
3. Yonboshlab suzish texnikasini gapirib beradi.
4. Suvga sho'ngish usullarini sanab beradi.
5. Suv ostida harakatlanish usullari haqida ma'lumot beradi.

Birinchi asosiy savolning bayoni:

Hozirgi vaqtda amaliy suzishning juda ko'p turlari va usullari mavjud. Qabul qilingan klassifikatsiyaga asosan ular uch asosiy guruxga birlashadilar: sho'ngishlar, cho'quvchilarni qutqarish, suv to'siqlaridan oshish. Amaliy suzishda suzishning yonboshlab, brass va chalqancha usullari keng qo'llaniladi. chalqancha usul asosan cho'kkanlarni transportirovka qilishda, yuklarni transportirovka qilishda, sho'ngishlarda, kiyimda qurol bilan suzishda keng qo'llaniladi. chalqancha brass usulidan cho'quvchilarni qutqarishda, suv to'siqlaridan oshishda keng qo'llaniladi.

Yonboshlab suzish usuli qo'llarning ketma —ket assimetrik harakatlari va oyoqlarning bir vaqtdagi assimetrik harakatlari bilan harakterlanadi. Bu usulda suzganda gavda chap yoki o'ng yon bilan suv yuzida turadi, bosh ham yonbosh holatda bo'lib, yuzning bir tomoni suvda bo'ladi.



Bu usulda oyoqlar tayyorgarlik harakatlarini (tortilish), ishchi harakat va sirpanish harakatlarini bajaradi. Dastlabki holatda «yuqoridagi oyoq» tana bo'ylab cho'zilib, tizza va tos bo'gimida gavda yo'nalishida oldinga harakatlanadi.

Suvga sho'ngishlar usullari barchasi ikki gruppaga birlashadi. Birinchi guruxga tayanib (skameyka, supachagbasseyn devori va h.k.) suvga sho'ngishlar, Ikkinchi guruxga esa tayanchsiz

holatdan (suv yuzidan) sho'ngishlar kiradi. Suvga sho'ngishlar bosh va oyoqlar yordamida amalga oshiriladi.

Tayanch holatidan bosh bilan pastga qarab pgo'ngish start supachasi yordamida yoki biror bir narsaga tayangan holda amalga oshiriladi. Tayanchsiz holatdan suvga sho'ngishlar asosan ikkita usul asosida bajariladi: bosh bilan pastga, oyoq bilan pastga.

Bosh bilan pastga sho'ngishda suzuvchi qo'llarni oldinga uzatadi, oyoqlarni tos va tizza bo'gimida bukib, tizzalarni ko'krak qismiga tortadi. Shundan so'ng u qo'llar bilan orqaga — pastga eshish harakatlarini bajaradi.

Oyoqlar bilan pastga sho'ngishda ham shu dastlabki holat qabul qilinadi, lekin bunda tizza va tovonlar yonga qaratilgan bo'ladi. Dastlabki holatdan suzuvchi qo'llar bilan juda tez suvdan itariladi va gavdaning elka qismi yuqoriga ko'tariladi, shu bilan bir vaqtda oyoqlar yordamida brass usulidagi singari eshish harakati bajariladi.

Ayni vaqtda suv ostida harakat qilishning kuyidagi usullari mavjud: ko'krakda brass, yonboshlab, ko'krakda krol, torpedo va kombinatsiyalashtirilgan usullari.

Brass usuli : bu usul texnikasi xuddi suv yuzidagi brass usuli singari qoladi. Bosh biroz pastga qaratiladi. Tezlik suv yuzidagi tezlikdan yuqoriroq bo'ladi.

Yonbosh usuli ; D.X. suzuvchi yonbosh holatda yotadi, qo'llar tana bo'ylab cho'zilgan, oyoqlar uzatilgan birlashgan holatda. Dastlabki holatdan qo'llar bir vaqtda tirsak bo'gimidan buqilib, tana bo'ylab oldinga uzatiladi, shu vaqtning o'zida oyoqlar tayyorgarlik harakatini bajaradi. Shundan so'ng oyoq va qo'llar eshish harakatini bajaradi.

Ko'krakda krol' usuli: bu usul ham suv yuzidagi krol usulini eslatadi, faqat bunda qo'llar suv yuziga chiqmaydi, eshish harakatlari tezlashadi.

Torpedo usuli: suzuvchi oyoqlar yordamida krol' usullari singari tezkor harakatlarni bajaradi. qo'llar oldinga uzatilgan, bosh qo'llar orasida. Kombinadiyalashtirilgan usul: bu usulda qo'llar brass usulidagidek eshish harakatlarini bajarsa, oyoqlar krol usulidagi kabi harakatlarni bajaradi.

Muhokama uchun savollar:

1. Amaliy suzish ahamiyatini so'zlab bering.
2. Amaliy suzish usullari va turlari haqida gapirib bering.
3. Yonboshlab suzish usuli texnikasini tushuntirib bering.
4. Suvga sho'ngish usullarini sanab, ular farqini aytib bering.
5. Suv ostida harakatlanish usullarini aytib bering.

Ikkinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Suvdagi xavfsizlik texnikasi va cho'kayotganlarni qutqarish texnikasi haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. qutqaruv jixozlarini sanab beradi, ulardan foydalanish texnikasini gapirib beradi.
2. Cho'kayotganlarni qutqarish texnikasini tushuntirib beradi.
3. Xushidan ketgan jabrlanganga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish haqida gapirib beradi.
4. Sun'iy nafas usullari va ular farqi haqida ma'lumot beradi.

Ikkinchi asosiy savolning bayoni:

Inson suv muxitida bo'lgan vaqtda ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida qirgoqlarda, odamlar gavjum bo'ladigan joylarda doimo qutqaruv stantsiyalari va postlari faoliyat ko'rsatishi zarur. qutqaruv xizmatining asosiy maqsadi kishilarning suvdagi hayotlarini har xil baxtsiz xodisadan saqlashdir. Shunga qaramay, ular barcha baxtsiz xodisalarning oldini olishlari qiyin. Shu sababli barcha suzishni biladiganlarga cho'kayotganlarni qutqarish usullarini o'rgatmoq kerak.

Qutqarish jixozlari va ulardan foydalanish texnikasi.

Standart qutqarish jixozlari o'z ichiga qutqaruv aylanalarini, sharlar va belboglarni, cho'p va bagralarni oladi.

qutqaruv aylanalarining diametri 60-80 sm, ogirligi 4-7 kg. bo'lib, 8-12 kg. ogirliklarni ko'tara oladi. Ular penoplassdan tayyorlanadi. qutqaruv aylanalaridan quyidagicha foydalaniladi: qutqaruvchi bir uchi aylanaga boglangan ipni 4-5 marta aylantirib, cho'kayotganga uloqtiradi. Cho'kayotgan bir qo'li bilan aylanani bosib, vertikal holatga keltiradi va boshi bilan bir qo'lini, so'ngra ikkinchi qo'lini ham aylanadan o'tkazadi hamda aylanaga qo'ltiklari bilan tayanib, oyoqlari bilan harakatlanadi.

qutqaruv sharlari 20-25 sm. diametrga, 2-2,5 kg. ogirlikka ega bo'lib, 7-10 kg. (ikkita shar) ogirlikni ko'tara oladi. Sharlar penoplassdan tayyorlanib, ikkita shar 50 sm. ip bilan bir-biri bilan ulanadi.

Baxtsiz xodisalarning oldini olish maqsadida suzishni yaxshi bilmaydiganlarga qutqaruv belboqlari kiydiriladi. Agar biron kishi qirgoqdan uzoq bo'lmagan joyda baxtsiz xodisaga uchrasa, u kishiga ipning bir uchi yoki cho'p uzatilib, tortib olinadi.


Cho'kayotganlarni qutqarish texnikasi.


Agar cho'kayotganlarga qutqarish jixozlari bilan yordam berishning iloji bo'lmasa, unda unga suzib borib qutqarish zarur. Lekin, suvga tushishdan oldin sharoitni yaxshilab o'rganib olishi kerak. qutqaruvchi cho'kayotgan kishining orqa tomonidan suzib, unga yaqinlashishi lozim. Cho'kayotgan odam o'z ustidan nazoratni yo'qotib, turli pala — partish harakatlar qilib, qutqaruvchining qo'li, bo'yni va gavdasiga yopishib olishi mumkin. Bunday harakatlar nafaqat cho'kayotganni, balki qutqaruvchi hayotiga ham zomin bo'lishi mumkin. Bunday harakatlardan xoli bo'lish uchun, turli tirmashib olishlardan qutulish usullarini yaxshilab egallab olish kerak. Cho'kayotganlarni tirmashib olishlaridan qutulish uchun quyidagi qoidalarini bilish lozim:


A) agar cho'quvchi qutqaruvchiga unga transportirovka qilish uchun xalaqit qilmaydigan holda tirmashib olgan bo'lsa, bunday tirmashishlardan qutulish shart emas;

B) agar cho'kayotgan kishi qutqaruvchiga shunday tirmashib olgan bo'lsa va bu holat qutqaruvchiga xalaqit bersa, bunday holatlarda tezda suv ostiga kirishi lozim. Bunda ham u cho'kayotganning changalidan qutilmasa, u holda u ogrituvchi usullardan foydalanishi kerak (past jagni yuqoriga itarish, barmoklarni qayirish va h.k.).

Agar cho'kayotgan qutqaruvchining ikki qo'lga yopishib olgan bo'lsa, unda qutqaruvchi qo'llarini bosh barmoq tarafga qarab tez harakatlantirish zarur. Agar cho'kayotgan qutqaruvchi bo'yniga old tarafdin tirmashib olsa, u holda qutqaruvchi qo'llari bilan cho'kayotganni bilaklaridan ushlab yuqoriga itarishi, o'zi esa suv ostiga kirib, changaldan qutiladi.









Transportirovka qilish usullari.

Agar cho'kayotgan holdan toygan va qutqaruvchini ushlay olmas darajada bo'lsa, u holda qutqaruvchi cho'kayotgan kishi qo'llarini o'z elkasi qismiga qo'yib brass usulida suzadi. Agar cho'kayotgan kishi xushidan ketgan bo'lsa, u holda qutqaruvchi cho'kayotgan kishini sochlaridan bir qo'li bilan ushlab, chalqancha brass yoki yonboshlab suzish usulida transportirovka qiladi. Agar,

suvdan chiqarilgan jabrlanuvchi xushini yo'qotmagan bo'lsa, uni tinchlantirish va isitish lozim. Undan xo'l kiyimlarini echib, badanini artish va adeyalga o'rash kerak.

20 — 25 tomchi valerianka yoki issiq shirin choy berib, tibbiy yordam kelgunga qadar kutish kerak. Agar, cho'quvchi suvdan xushdan ketgan holda olib chiqilgan bo'lsa, u holda uni sun'iy nafasga tayyorlash kerak, ya'ni ogzini ochishg uni kir va loydan tozalab, o'pka va oshqozondan suvni chiqarish zarur.



«Og'izdan — ogizga» sun'iy nafas usuli.

Jabrlanuvchi chalqancha yotqiziladi. qutqaruvchi chuqur nafas olib, jabrlanuvchi burnini qisib, ogziga doka ro'molcha qo'yib, jabrlanuvchi ogziga chuqur nafas chiqaradi. Bu xol to jabrlanuvchi ko'krak qafasi kengaygunga qadar davom ettiriladi. Shundan so'ng qutqaruvchi qo'llarini jabrlanuvchining ko'krak qafasiga qo'yib, o'pkadan nafas chiqqunga qadar bosib, qo'yib yuboradi.

«Og'izdan — burunga» sun'iy nafas usuli.

Bu usul yuqoridagidek, faqat jabrlanuvchi ogziga nafas berishning iloji bo'lmaganda jabrlanuvchi buruni orqali nafas jo'natiladi. «Sel'vestr» usuli. Jabrlanuvchi chalqancha yotadi. qutqaruvchi jabrlangan kishi qo'llarini yuqoriga ko'tarib bosh orqasiga olib o'tadi. qo'llarni erga tekizib tortadi. Shundan so'ng qo'llarni ko'tarib, tirsak qismidan bukib, ko'krak qismidan pastroqqa olib kelib qattiq bosib, o'pkadan xavo chiqarilishiga yordam beradi.

Muhokama uchun savollar:

1. Qutqarish jixozlari va ulardan foydalanish texnikasini aytib bering.
2. Cho'kayotganlarni qutqarish usullari haqida gapiring.
3. Hushidan ketgan jabrlanuvchiga qanday yordamlar ko'rsatiladi?
4. «Og'izdan — og'izga», «og'izdan — burunga» sun'iy nafas usullarini gapirib bering.
5. Silvestr usulini so'zlab bering.

Uchinchi asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga suvto'siqlaridan oshish texnikasini so'zlab beradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Suzuvchi vositalar orqali suv to'siqlaridan oshish xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.
2. Suzuvchi vosita va moslamalarsiz suv to'siqlaridan oshish xususiyatlarini so'zlab beradi.
3. Kiyimda suv to'siqlaridan oshish texnikasi haqida gapirib beradi.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:

Suv to'siqlaridan oshish ikki xil yo'l orqali: suzuvchi vosita va moslamalar yordamida, hamda ularsiz amalga oshiriladi.

Suzuvchi vositalar yordamida to'siqlardan oshish.

Suv to'siqlaridan oshish uchun turli buyumlardan (ko'taruvchi kuchga ega bo'lgan) foydalanish mumkin. Bularga xoda, to'nka, shox — shabba, avtomobil' kameralari, xavo bilan to'ldirilgan matratslar, tayoqlar, bo'sh shisha, kanistrlar misol bo'la oladi. to'siqlardan muvaffakiyatli oshish uchun suzuvchi vositalardan to'g'ri foydalanishni bilish zarur. Agar, avtomobil kamerasi yordamida to'siqlardan oshish zarurati tugilsa, u holda kamera o'rtasiga kirib olish, kamera qo'ltiqlar ostida qolishi zarur. Taxta yoki xodalar yordamida to'siqlardan oshish zaruriyati tugilsa, u holda qo'llar xoda yoki taxtaga tayanadi yoki ko'krak bilan ular ustiga yotib olinadi. Yuqoridagi har ikki holatda ham suv to'siqlari asosan oyoqlar harakati yordamida zabt etiladi.

Yordamchi vositalarsiz suvli to'siqlardan oshish.

Yordamchi vositalarsiz suvli to'siqlardan oshish uchun kishi suzishni yaxshi bilmogi zarur. Shunday xollar bo'ladiki, sport kiyimida to'siqlardan oshish zaruriyati tugiladi. Bunday xollardan sharoitga qarab suzish usuli tanlanadi. Agar, uzoq suzish talab etiladigan bo'lsa, unda eng yaxshisi brass usulidan yoki yonboshlab suzish texnikasidan foydalanish kerak. Ko'pgina xollarda kiyimda

suvli to'siqlardan oshishga tugri keladi. Bunday vaqtda palto va oyoq kiyim echiladi, ko'ylak shimdan chiqariladi, engdagi va yoqadagi tugmalar echiladi, cho'ntaklar chappa qilinadi, suvda esa brass usuli yoki qo'llarni chiqarmay yonboshlab suzish usulidan foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. Yordamchi vositalar yordamida suvli to'siqlardan oshish usullari haqida gapirib bering.
2. Yordamchi vositalarsiz to'siqlardan oshish usullarini tushuntirib bering.
3. Kiyim bilan suvli to'siqlardan oshish qay tarzda amalga oshiriladi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

7-topshiriq. Cho'kayotganlarni transportirovka qilish usullarini o'rganish.

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. B.N.Nikitskiy. Plavanie. M.Pros. -1981 g. 141 — 159 b.
2. O.A.Sobirova. Suzish. Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 1993. 89-99 b.
3. Y.Tangirov, A.N.Levitskiy. Suzish.-Toshkent:«Meditsina» nashriyoti, 1986 y. 45-95 b.

8-MAVZU: “SUZISH BO’YICHA O’RGATISH VA TRENIROVKA USULLARI”

Fanni o’qitish texnologiyasi:

“Suzish bo’uicha o’rgatish va trenirovka usullari”. mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi.

№	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma’sul
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: Suzish bo’uicha o’rgatish va trenirovka usullari umumiy tavsif berish, o’rgatish va trenirovka usullari, vositalari va tamoyillari haqida ma’lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: Identiv o’quv maqsadlari: - O’rgatish printsiplarini sanab beradi. - Onglilik va aktivlik tamoili haqida so’zlab beradi. - Ko’rgazmalilik tamoili mohiyatini ochib beradi. - Individuallashtirish tamoili haqida so’zlaadi. - Sistemalilik tamoili mohiyatini ochib beradi. - Talablarni oshirib borish tamoili haqida ma’lumot beradi. 1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Suzishga o’rgatish asoslari, o’rgatish vazifalari, o’rgatish mazmuni, harakat ko’nikmalarini shakllantirish fazalari, odam organizmining suv muhitiga moslashuvi, o’rgatish etaplari, o’quv gruppalarini komplektlash, o’rgatish shakllari, o’rgatish vositalari, usullari, sport trenirovkasi. 1.4. Dars shakli: Gurux va mikroguruxlarda ishlash. 1.5. Foydalanilgan metod va usullar: Taqdimot, Tezkor savol-javob, munozara 1.6. Kerakli jixoz va vositalar: ma’ruza matni, o’quv-uslubiy majmua, o’quv qo’llanma, rasmlar, videoproektor	O’qituvchi
2	O’quv mashg’ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e’lon qilinadi. 2.2. Ma’ruza boshlanadi, asosiy qismlar bayon qilinadi.	O’qituvchi
3	Guruxda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, qolgan talabalar baxs chaqiriladi. - 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to’g’riligi tekshiriladi.	O’qituvchi- Talaba, 40 minut
4	Mustaxkamlash va baxolash : 4.1. Berilgan ma’lumotlarni talabalar tamonidan qanday o’zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - O’rgatish usullarini sanab bering. . - Trenirovka tamoyillarini haqida gapirib bering. - Trenirovka usullari haqida tushunchaga ega bo’ladi. 4.2. Eng faol talabalar (baxolash mezonini asosida) baholanadi	O’qituvchi 15 minut
5	O’quv mashg’ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. O’qituvchi o’z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o’zgartirishlar kiritadi.	O’qituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. O'rgatish va trenirovka tamoillari.
2. Suzishga o'rgatishning asosiy vositalari.
3. Suzishga o'rgatishning shakl va usullari.
4. Suzishga o'rgatishning tuzilishi va mazmuni.
5. Sport trenirovkasi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Suzishga o'rgatish asoslari, o'rgatish vazifalari, o'rgatish mazmuni, harakat ko'nikmalarini shakllantirish fazalari, odam organizmining suv muhitiga moslashuvi, o'rgatish etaplari, o'quv gruppalarini komplektlash, o'rgatish shakllari, o'rgatish vositalari, usullari, sport trenirovkasi.

Birinchi savol bo'yicha dars maqsadi: Shug'ullanuvchilarni o'rgatish va trenirovka tamoillari bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

7. O'rgatish printsiplarini sanab beradi.
8. Onglilik va aktivlik tamoili haqida so'zlab beradi.
9. Ko'rgazmalilik tamoili mohiyatini ochib beradi.
10. Individuallashtirish tamoili haqida so'zlaydi.
11. Sistemalilik tamoili mohiyatini ochib beradi.
12. Talablarni oshirib borish tamoili haqida ma'lumot beradi.

Birinchi asosiy savolning bayoni:

Shug'ullanuvchilar suzish mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanish jarayonida suzish malakalarini egallashadi, funktsional imkoniyatlarini oshirishadi, organizm barcha sistemalari faoliyatini takomillashtiradi, jismoniy sifatlarni rivojlanish darajasini va sport natijalarini oshiradi. Yuqoridagi vazifalarni qay darajada bajarilishi bo'yicha o'quv – trenirovka jarayoni ikkiga – o'rgatish va trenirovka jarayoniga bo'linadi.

O'RGATISH–deganda o'quv jarayonining shunday qismi tushuniladiki, bunda eng asosiy e'tibor suzish ko'nikmalarni egallash vazifasiga qaratiladi.

Agarda mashg'ulot jarayonida funktsional imkoniyatlar va jismoniy sifatlarni takomillashtirish vazifalari etakchi o'rinni egallasa, u holda bunday jarayon sport trenirovkasi deyiladi.

Shug'ullanuvchi suzish ko'nikmalarini egallayotib turli harakatlarni bajaradi, bu esa uning jismoniy tayyorgarlik darajasini va ish qobiliyatini oshiradi. Trenirovka mashqlarini bajarib esa, suzuvchilar uzluksiz ravishda harakat malakalarini takomillashtirib borishadi, o'sib borayotgan jismoniy sifatlari, qobiliyatlarini suzish texnikasi va elementlarini takomillashtirishga yo'naltiradilar. Shunday qilib, o'rgatish va trenirovka uzluksiz pedagogik jarayonning ikki tomoni hisoblanib, bir – biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Suzish bo'yicha o'quv–trenirovka jarayoni boshqa sportdagi singari jismoniy tarbiya tizimining umumiy tamoillariga, o'rgatish va trenirovka uzluksiz pedagogik jarayonning ikki tomoni hisoblanib, bir–biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Suzish bo'yicha o'quv–trenirovka jarayoni boshqa sportdagi singari jismoniy tarbiya tizimining umumiy tamoillariga, o'rgatish va trenirovka, hamda sport trenirovkasi maxsus tamoillariga bo'ysunadi.

Onglilik va aktivlik (faollik) tamoili.

Qachonki, shug'ullanuvchilar mashg'ulotlarga katta qiziqish bilan qatnashishsa, har bir mashqni zur ishtyoq bilan bajarishgandagina suzish ko'nikmalarini egallashadi, sport mahoratini oshirishadi.

Mashg'ulotlarga qiziqish va faollik shug'ullanuvchilarning ongli yondoshishi orqali erishiladi. O'quvchilar o'rgatish va sport trenirovkasi maqsad va vazifalarini aniq his etishlari, ularni fikrlash, ularga ijobiy yondoshishlari lozim. O'qituvchi va trenerning asosiy vazifasi shundaki, ular o'quvchilarni bajarishayotgan o'zlarining harakatlarini tahlil qilishga, ularni samarali

boshqarishga, harakatlarni borliq, vaqt va kuch xarakteristikalarini to'g'ri baholashga o'rgatishlari kerak. Bu esa o'quvchilarni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini va faolliklarini oshiradi.

Ko'rgazmalilik tamoili.

Bu tamoilning mohiyati shundan iboratki, harakatlarni ko'rsatish, namoyish etish, obrazli tushuntirish va so'zlab berish orqali o'rganilayotgan harakatlar to'g'risida tasavvur hosil kilishdir. Suzish mashg'ulotlarida ko'rgazmalilik suzish texnikasining alohida elementlarini yoki suzish usulini to'liq namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

Individuallashtirish tamoili.

Bu tamoilga asosan o'rgatish va trenirovka jarayonini shug'ullanuvchilar imkoniyatlari darajasidan, ularning individual jihatlarini hisobga olgan holda tashkil etish lozim. Bunda shug'ullanuvchilar yoshi, jinsi, jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasi, sog'lig'i, ruhiy holati e'tiborga olinadi.

Muntazamlilik tamoili.

Bu tamoil mashg'ulotlarning uzluksizligini, takroriyiligini, ketma-ketlikni nazarda tutadi.

Suzish bo'yicha muntazam ravishdagi mashg'ulotlar muntazamsiz olib borilgan mashg'ulotlardan farqli o'laroq, o'rgatish va sport trenirovkasi mashg'ulotlari samaradorligini oshiradi.

Talablarni oshirib borish tamoili.

Bu tamoil shug'ullanuvchilarga bo'lgan talablarni oshirib borishni nazarda tutadi. Bunda mashqlar murakkabligi darsdan-darsga ortib borib, nagruzkalarning umumiy hajmi va intensivligi ham ortib boradi.

Muhokama uchun savollar:

1. O'rgatish jarayoni tamoillarini sanab bering.
2. Onglilik va faollik tamoili haqida so'zlang.
3. Ko'rgazmalilik tamoili haqida tushunchangizni ayting.
4. Individuallashtirish tamoilining mohiyati nimada?
5. Muntazamlilik tamoilining mohiyatini ayting.
6. Talablarni oshirib borish tamoili haqida gapiring.

Ikkinchi savol bo'yicha dars masadi: Suzishning asosiy vositalariga tavsif beradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Umumrivojlantiruvchi mashqlar haqida ma'lumot beradi.
2. Suzish bo'yicha tayyorlov mashqlarni mohiyatini ochib beradi.
3. Suzish bo'yicha maxsus mashqlarni aytib beradi.

Ikkinchi asosiy savolning bayoni:

Umumrivojlantiruvchi, tayyorlov va maxsus mashqlar suzishga o'rgatishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar-kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarning rivojlantirish imkonini beradi. URMlar davolash jismoniy madaniyatning ajoyib vositasi ham hisoblanadi. Bundan tashqari URM funktsional imkoniyatlarni oshirib, harakat ko'nikma va malakalari doirasini kengaytirib, shug'ullanuvchilarni suzish harakatlarini samarali egallash uchun tayyorlaydi. Qoidaga asosan URMlar gimnastik mashqlar, yugurish, yurish, buyum va buyumlarsiz, snaryadlarda bajariladigan mashqlar, hamda badiiy gimnastika shaklida bajariladi.

Tayyorgarlik mashqlari-suzish ko'nikmalari va uning alohida elementlarini o'rganishda zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Tayyorgarlik mashqlari uch guruhga: a) suvga ko'niktiruvchi; b) suzishning engillashtiruvchi usullarini egallashga; v) sportcha usul texnikalarini o'lchash mashqlariga bo'linadi.

Suvga ko'niktiruvchi tayyorlov mashqlari suvni his qilishga, qo'rquvni engishga, suvda gorizontal holatda turishga va suvda oddiy harakatlarni bajarishga yordam beradi.

Suzishning engillashtirilgan usullarini egallashga qaratilgan tayyorlov mashqlari esa sportcha suzish usullarini samarali egallash uchun zarur harakatlar fundametini yaratadi.

Sportcha suzish usullarini o'rgatish uchun qo'llaniladigan tayyorlov mashqlari o'z ichiga quruqlikdagi mashqlarni, suvdagi mashqlarni, imitatsion mashqlarni, kuch va egiluvchanlikni oshiruvchi: bo'g'inlar harakatchanligi, rezinali ammortizatorlar bilan bajariladigan gimnastik devorlarda bajariladigan, gantel va to'ldirilgan to'plar bilan bajariladigan mashqlardan iborat.

Maxsus mashqlar–shug'ullanuvchilarning individual hususiyatlariga to'g'ri keluvchi texnikaning eng yaxshi variantini egallash, xatolarni yo'q qilish yo'li orqali sportcha usul texnikalarini takomillashtirish uchun qo'llaniladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Qanday mashqlar suzishning asosiy vositalari hisoblanadi?
2. URMlar to'g'risida ma'lumot bering.
3. Tayyorlov mashqlari mohiyatini ayting.
4. Maxsus mashqlar nima uchun qo'llaniladi?

Uchinchi asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: O'rgatishning shakl va usullariga tavsif berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Suzishga o'rgatishning uch asosiy shaklini sanab beradi.
2. So'z metodi haqida gapiradi.
3. Ko'rgazmalilik metodi mohiyatini ochib beradi.
4. Amaliy metodlar haqida ma'lumot beradi.
5. Suzishga o'rgatishning umumiy tizimini bayon qilib beradi.

Uchinchi asosiy savolning bayoni:

Suzishga o'rgatishning uch shakli: guruhli, individual va individual yondoshgan holda guruhli shakli mavjud.

Guruhli o'rgatish shakli, jinsi, yoshi, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarliklari bir xil bo'lgan shug'ullanuvchilar bilan o'tkaziladi.

Individual o'rgatish shakli esa asosan suzishni yaxshi bilmaydigan, suvdagi harakatlarni egallashda kam qobiliyatli shug'ullanuvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda qo'llaniladi.

Individual yondoshgan holda guruhli o'rgatish shakli esa, asosan maktabdagi, o'quv yurtlari va suzish seksiyalari mashg'ulotlari asosini tashkil etadi.

O'rgatish usullari–bu pedagog tomonidan shug'ullanuvchilarda zarur ko'nikma va malakalarni tarbiyalashda va ularga o'z bilimini berishda qo'llaydigan samarali usullaridir. O'rgatishning uch usuli: so'z, ko'rsatmalilik va amaliy usullari mavjud.

So'z usuli. Bu usul yordamida shug'ullanuvchilarda o'rganilayotgan harakat haqida tasavvur hosil qilinadi, shu bilan birga pedagog tomonidan harakatlar haqidagi tasavvurni tahlil qilish, hosil qilish va xatolarni tuzatishga yordam beradi.

Ko'rsatmalilik usuli. Bu usul shug'ullanuvchilarda o'rganilayotgan faoliyat, harakat, mashqlar to'g'risida konkret tasavvur hosil qilishni ta'minlaydi. Bu usul o'z ichiga: mashqlarni ko'rsatish, ko'rgazmali qurollar va o'kuv filmlarni namoyish etishni oladi.

Amaliy usullar. Bu usullarga mashq usuli, o'yin va musobaqa usullari kiradi.

Suzishga o'rgatishning umumiy strukturasi quyidagi etaplardan iborat:

- o'rganilayotgan usul va elementlar namoyishi;
- o'rganilayotgan usul va texnikalarni nazariy tushuntirish;
- o'rganilayotgan usulda suzishga urinib ko'rish;
- harakatlar bilan quruqlikda, hamda suvda usulning alohida qismlari bilan amaliy tanishish;

- usulni to'lig'icha egallash; usul texnikasi va elementlarini egallash.

Muhokama uchun savollar:

1. Suzishga o'rgatishning uch shaklini aytib bering.
2. So'z usuli haqida so'zlab bering.
3. Ko'rgazmalilik usuli mohiyati nimadan iborat?
4. O'rgatishning amaliy usullarini sanab bering.
5. Suzishga o'rgatishning umumiy sxemasi haqida tushunchangiz.

To'rtinchi asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Suzishga o'rgatishning tuzilishi va mazmuni yoritib beradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Suzishga o'rgatishning ikki asosiy turi haqida tavsif beradi.
2. Ko'rgazmalilik usuli ahamiyatini ochib beradi.
3. Suzishning engillashtiruvchi usullari haqida gapiradi.
4. Sportcha suzish usullari texnikasiga o'rgatish sxemasini tushuntirib beradi.

To'rtinchi asosiy savolning bayoni:

Suzishga o'rgatishning ikki asosiy turi mavjud: a) boshlang'ich o'rgatish; b) sportcha suzish usullariga o'rgatish.

O'rgatishning bu ikki turi ham suzish bo'yicha malakalar egallashga katta yordam beradi. Suzish malakalarini egallash shug'ullanuvchilar suv muhitiga ko'nikkanlaridan keyingina boshlanadi. Suzish malakalarining shakllanish jarayoni uch fazada amalga oshiriladi. Birinchi faza alohida suzish harakatlarini o'rganish va bu harakatlarni yagona faoliyatga birlashtirishni nazarda tutsa, ikkinchi fazada ortiqcha harakatlar bartaraf etilib, ko'nikma yaxshilanadi. Uchinchi faza esa suzuvchining funktsional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish asosida suzish ko'nikmalarini yanada takomillashtirishni nazarda tutadi.

Harakat ko'nikmalarining yuzaga kelish qonuniyatlariga asosan o'rgatishda quyidagi etap (bosqich)lardan foydalaniladi.

1–bosqich. Dastlabki o'rganish. SHug'ullanuvchilar suzish usuli haqida tasavvurga ega bo'ladi, amaliyotda sinab ko'radi, alohida elementlarini egallaydi, usulni to'lig'icha egallaydi, noto'g'ri harakatlar bartaraf etiladi.

2–bosqich. CHuqurlashtirilgan o'rgatish. Bu bosqichda usul texnikasi detallari aniqlanadi va egallanadi. Bu bosqichning asosiy vazifasi keyinchalik takomillashgan suzish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat.

3–bosqich. Usullarni mustahkamlash va takomillashtirish. Bu bosqich davomida suzish usuli egallanadi va o'z stili (usuli) shakllanadi. Bu bosqich o'rgatishning oxirgi stadiyasi (davri) va butun sport trenirovkasi davrini qamrab oladi.

O'quv va tayyorlov guruhleri shug'ullanuvchilar jinsi, yoshi va tayyorgarlik darajalarini hisobga olgan holda komplektlanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshga asosan quyidagicha guruhlar tuziladi: maktabgacha yoshdagilar (5-6 yosh), kichik yoshdagi bolalar (7-8 yosh), o'rta yoshdagi bolalar (9-10 yosh), katta yoshdagi bolalar (11-12 yosh), o'spirinlar (13 – 14 yosh), o'smirlar (15-16 yosh), katta yoshdagi o'smirlar (17 – 18 yosh), kattalar (19-25, 26-35,36 – 45 yosh) va keksalar.

Tayyorgarlik darajalarini hisobga olgan holda shug'ullanuvchilar ikki guruhga: suzishni bilmaydiganlar, sport usulini egallamgan, lekin yaxshi suzadilar.

Dastlabki o'rgatish–suvdagi tayyorlov mashqlarini va engillashtirilgan usullarni egallashni nazarda tutadi. Suzishni bilmaydiganlarga suvga ko'niktiruvchi tayyorlov mashqlarni o'rgatish bilan boshlanadi. Ularning ahamiyati suv muhiti bilan tanishtirish, tananing suvdagi gorizontol holatini shakllantirish, suvga nafas chiqarishni o'rgatishdan iborat. Suzishning engillashtirilgan usullariga o'rgangan suzuvchilarni sportcha suzish usullariga o'rgatishning qiyinchilik tomoni shundaki, shug'ullanuvchilar tananing ayrim qismlari tomonidan bajariladigan uzluksiz

harakatlarini, sportcha suzish usuli tuzilishi talab etadigan darajada nafas ritmi bilan moslashtira olmaydilar. Engillashtirilgan usullar texnikasiga o'rgatish quyidagi ketma-ketlikda o'rgatiladi: oyokqar harakati, nafas, qo'llar harakati, qo'llar harakatini nafas bilan moslash, qo'l va oyoq harakatlarini nafasni ushlab turgan holda moslash, to'liq koordinatsiya bilan suzish.

Muhokama uchun savollar:

1. O'rgatishning ikki asosiy turiga tavsif bering.
2. Dastlabki o'rgatish bosqichining ahamiyatini tushuntiring.
3. Engillashtirilgan usullar haqida so'zlang.
4. O'rgatish bosqichlariga tavsif bering.

Beshinchi asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Talabalarga sport trenirovkasi mohiyatini yoritib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Sport trenirovkasining maqsad va vazifalari haqida so'zlab beradi.
2. Sport trenirovkasi vositalarini aytib beradi.
3. Sport trenirovkasi shakl va usullarini aniqlab beradi.
4. Sport trenirovkasi tuzilishi va mazmunini so'zlab beradi.
5. Sport formasining rivojlanish fazalarini sanab beradi.
6. Sport trenirovkasini tavsiflab beradi.

Beshinchi asosiy savolning bayoni:

Suzish bo'yicha sport trenirovkasi deganda sportchini har tomonlama jismoniy tarbiyalashga va o'z mahoratini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'p yillik pedagogik jarayon tushuniladi. Sport trenirovkasining asosiy maqsadi sportchilarni mehnatga va Vatan mudofasiga tayyorlash va yuqori sport mahorati darajasiga erishishlarini ta'minlashdir. Sport trenirovkasi jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- sportchining sog'lig'ini mustahkamlash va ish qobiliyatini oshirish;
- hayotiy zarur ko'nikma va malakalarni tarbiyalash;
- jismoniy va irodaviy sifatlarni yuqori darajadagi rivojiga erishish;
- sportchilarni mehnatga va Vatan mudofasiga tayyorgarliklarini muntazam oshirib borish;
- tanlagan sport turi bo'yicha umumiy va maxsus bilimlarni oshirib borish.

Trenirovkaning asosiy vositalari bu jismoniy mashqlardir. Bu mashqlar ikki guruhga: quruqlikdagi va suvdagi mashqlarga birlashadi. Sport trenirovkasining uch shakli mavjud: guruhli, individual, individual yondoshgan holda guruhli shakllari.

Individual trenirovka turli klasifikatsiyadagi suzuvchilar bilan va yuqori mahoratli suzuvchilar bilan o'tkaziladi. Trenirovkaning guruhli shakli esa suzuvchilarning sport taraqqiyotining dastlabki bosqichida qo'llaniladi. Individual yondoshgan holda guruhli trenirovka esa maxsus maktablar (BO'SM va suzish markazlari) mashg'ulotlarida qo'llaniladi.

Sportcha suzishda trenirovkaning 5 asosiy usuli qo'llaniladi.

Intervalli usul- masofa va bo'laklarni turli intensivliklarda takror suzishlar va takrorlashlar borasidagi dam olishlarning aniq davomiyligi bilan xarakterlanadi.

Takroriy usul - masofa va bo'laklarni yuqori intensivlikda takror suzishni va takrorlash orasidagi dam olishning aniq davomiyligini ko'zda tutadi.

O'zgaruvchan usul - bu usulning mohiyati shundaki, suzuvchi ma'lum bir masofani suzib o'tayotib, masofaning har xil bo'laklarida tezlikni o'zgartirib suzadi.

Bir maromli usul - turli bo'laklar va masofalarni bir xil tezlikda bosib o'tishni nazarda tutadi.

Nazorat usuli - trenirovka mashg'ulotlari va nazorat musobaqalari uchun mo'ljallangan masofalarni bosib o'tishni nazarda tutadi.

Sport trenirovka jarayonida eng yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan bo'ladi. Suzuvchi yaxshi nazariy va amaliy bilimlarga, yaxshi jismoniy rivojlanishga, a'lo darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan va taktik jihatdan yaxshi tayyorlangan bo'lsagina bunday natijaga erishish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda suzuvchi trenirovkasi talablarini quyidagi tayyorgarliklarga ajratish mumkin:

Nazariy tayyorgarlik–sportchi tomonidan umumiy va maxsus bilimlarni egallashga qaratilgan.

Jismoniy tayyorgarlik–organizmning funktsional imkoniyatlarini va harakat qobiliyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Texnik tayyorgarlik–ko'p miqdordagi murakkab harakatlarni takomillashtirishga, turli suzish usullarida harakatlarni bajarishning individual manerasini aniqlash hamda ishlanma berishga yo'naltirilgan.

Taktik tayyorgarlik–masofalarda kuchni to'g'ri taqsimlash, raqib bilan masofada kurash olib borishning turli vositalarini egallashni ta'minlaydi.

Aхлоqiy–irodaviy tayyorgarlik–sportchilarda zarur irodaviy sifatlarni: qiyinchiliklarni engib o'tish, g'alabaga bo'lgan ishtiyoq, dadillikni tarbiyalashga ko'maklashadi.

Ma'suliyatli musobaqalar davrida yaxshi sport formasiga ega bo'lish uchun uning rivojlanishini to'g'ri boshqarish lozim. Sport formasining rivojlanishi fazali xarakterga ega bo'lib, uchta ketma – ket o'zgaruvchi fazalardan iborat:

- sport formasining tarkib topish fazasi umumiy jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish hamda irodaviy sifatlarning yangi, yuqori darajasiga erishish asosida yuzaga keladi;
- sport formasining stabillashishi suzuvchining sport natijalarini uning shaxsiy rekordi va undan yuqori darajada oshishni nazarda tutadi. Sport natijalarining darajasi va bu fazaning davomiyligi suzuvchining ilgari tayyorgarligi sifatiga bog'liq bo'ladi.
- sport formasini vaktinchalik yo'qotish stabillashgan fazada yig'ilgan charchoqlar natijasi bo'lib, suzuvchining mashq ko'rganlik darajasini pasaytirib, uni sport formasi holatidan chiqaradi.

Suzishda yuqori natijalarga erishish uchun tayyorgarlikning barcha turlarida ko'p yillik mehnat talab etiladi. Bu mehnat samarali, barcha tayyorgarliklarda yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lish uchun sport trenirovkasini rejalashtirish juda katta ahamiyat kasb etadi. Sport trenirovkasi amaliyotida istiqbolli, bir yillik va joriy rejalashtirishlar amal qiladi.

